

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

T A R I X F A K U L T E T I

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani _____

t.f.n., dotsent V.T.Ishquvatov

2014 yil «__» _____

5140600 «Tarix» ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Egamberdiyev Azim Bo’riboyevichning

“O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishda mahalla institutining o‘rni va ro‘li”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Tarix» kafedrasi dotsenti, tarix fanlari
nomzodi N.Rasulova

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Tarix» kafedrasi mudiri

_____ t.f.n., dots Z.A.Ilhomov

2014 y. «__» _____

TOSHKENT – 2014

**Mavzu: O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalla
institutining o'rni va roli**

Mundarija

Kirish	3
I Bob. O'zbekistonda mahallaning vujudga kelishi va taraqqiyoti.	
1.1 Mahallaning tarixi va rivojlanish bosqichlari.....	9
1.2 Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari.....	17
II Bob. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli	
2.1 Mahalla davlat va jamiyat taraqqiyotining omili.	26
2.2 "Obod mahalla yili" davlat dasturi va uning amaliy ahamiyati	36
III Bob. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli mavzusini o'qitishning metodik tavsiyalari	
3.1. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli" mavzu materialini samarali o'qitish bo'yicha tavsiyalar.....	45
3.2. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli" mavzusi yuzasidan pedagogik talim texnologiyalari asosida o'tkazilgan sinov dars ishlanmasi va taqdimoti.....	54
Xulosa.....	62
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati	64
Ilovalar	68

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik tufayli o'z taqdirini o'zi belgilash baxtini qo'lga kiritgan O'zbekiston Respublikasi o'zining istiqbolidagi ijtimoiy taraqqiyot yo'lini tanladi. Mamlakatimizda adolatli demokratik jamiyat bunyod etish bosh maqsad qilib belgilandi va bu maqsad sari izchil qadam qo'yiladi. Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi 2005 yil 28 yanvar maruzasida alohida takidlagandek, "Bizning asosiy va uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgilicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir"¹.

Inson manfaatlari va haq – huquqlarini to'liq hisobga oladigan, uning asriy orzu – umidlarini ro'yobga chiqaradigan eng adolatli ijtimoiy makon – bu, fuqarolik jamiyati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy asoslarini shakllantirish yo'llarini ilmiy tadqiq etish va amaliy takliflar ishlab chiqish hozirgi davr talabiga aylandi. Bizning fikrimizcha, erkin va farovon hayot manbai bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamiyat siyosiy tizimi barcha bo'g'inlarining, shu jumladan, mahalla institutining o'rne va roli beqiyosdir. Chunki endigina shakllanayotgan, jamiyatni boshqarishda tajribasi va mahorati yetarli darajada bo'lmagan, moddiy jihatdan hali zaif hisoblangan fuqarolik jamiyati institutlari orasida qadimiy idizga ega va xalqimiz qon – qoniga singib ketgan dunyoning boshqa bir yerida uchramaydigan jamoa bo'lib yashashning eng oliy shakli, ayni paytda demokratik institut sifatida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etayotgan mahalla institutidir.

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005.- 34b.

Mahalla O'rta Osiyoda qadimdan hududiy-ma'muriy birlik hisoblanadi. Bu yerda har bir yashovchi taqdiri, orzu-umidi, hayotga va odamlarga munosabati qat'iy nazoratda turgan. Bir-biri bilan hisoblashib yashagan. SHu bilan birga mahallachilik uzoq an'analarga va xalqimiz tarixiga, uning boy ma'naviy-axloqiy udumlariga bog'liq bo'lgan ulkan hayot maktabi.

Ma'lumki, jamiyatni demokratlashtirishning yana bir muhim sharti odamlarning ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar sur'atlari bir-biriga qanchalik mos bo'lishidir. SHuning uchun ham demokratik o'zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni, ularni hayotga tatbiq qilishni, avvalambor, jamiyatning o'zi anglamog'i va hal qilmog'i darkor. Bu o'rinda mahallalarning o'rni va o'z-o'zini boshqarish tartibotini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tajriba demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib, ko'r-ko'rona ko'chirib bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Unga tinimsiz intilish bilan hayotning og'ir sinovlariga bardosh berib erishish mumkin.

Osiyo mintaqasi va musulmon sharqidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlarning rivojlanish tajribasi o'ziga xos xususiyatlarga va o'ziga xos an'analarga ega. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. «Bizning mamlakatimizda, – deb ko'rsatgan edi I.A.Karimov, – demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etishi kabi fazilatlarga mos ravishda rivojlanishi zarur. Axloqiy, ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi darkor.» Bunday qadriyatlar respublikamiz sharoitida avvalo aholi zich yashaydigan mahallalarda shakllanadi. SHuning uchun respublikamizda mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy hayotda, demokratik jarayonlarni chuqur-lashtirishda mahallalar rolini oshirishga katta e'tibor berildi.

Davlat hokimiyati markaziy organlarining bir qator vakolat va vazifalarini, avvalambor iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etish, byudjet tashkilotlarini, kommunal xo'jalik va obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirish, odamlarni ish bilan ta'minlash va aholi manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakolatlarini mahalliy hokimiyat, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalarga bosqichma-bosqich o'tkazish jarayoni amalga oshirilmoqda.

Shunday ekan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish va bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda mahalla institutining rolini ilmiy asosda tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligi, **birinchidan**, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonida mahalla institutining rolini tarix fanlari nuqtai nazaridan o'rganishga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq; **ikkinchidan**, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda insonparvarlik g'oyalarini qaror toptirishda mahalla institutining o'ziga xos o'rin egallashini, boshqa fuqarolik institutlari bilan o'zaro munosabatini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi; **uchinchidan**, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda mahalla institutining o'rnini va rolini yanada chuqurroq o'rganishga qaratilgan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilandi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, yangi, adolatli demokratik jamiyat qurish bosh maqsad qilib belgilangach, ushbu masalani ilmiy o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada kuchaydi.

Bu jarayonda eng avvalo, davlat bosh islohotchi bo'lishini takidlash joiz. Konstitutsiya¹mizda, Prezident Islom Karimov asarlarida², qonun

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., 2013. -105-modda.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йули. Т.; “Ўзбекистон” 1992. Каримов И.А. Ҳаётимизнинг, тараққиётимизнинг ҳуқуқий асоси. Т-11. Т.: Ўзбекистон. Каримов И.А. Биз танлаган йул демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йули.. Т.11. –Т.: Ўзбекистон, 2003.

chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qabul qilingan qonun¹larida, Vazirlar Mahkamasining qaror²larida mahallaning fuqarolik jamiyati qurishdagi o'zni va roliga alohida e'tibor qaratilib uning vakalatlarini kengaytirish maqsadida faol amaliy ishlar olib borilmoqda.

A.A. Azizxo'jaev³, L.Levitin⁴, N. Qosimov⁵, A.D. Grebenkin⁶, V. Eshquvatov⁷, M. Qirg'izboyev⁸, N.B. Quvvatov⁹, O. Hasanov¹⁰, Sh.I. Jalilov¹¹ va boshqalarning asarlari hamda monografiyalarida atroflicha o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tarkibiga kirgan qator mamlakatlarda ham mahalla instituti va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining turli qirralari jamiyatshunos olimlar tomonidan o'rganilmoqda.

Yuqorida nomlari qayd qilib o'tilgan olimlarning ilmiy ishlariga yuqori baho bergan holda shu narsani alohida takidlash joizki, ular O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda mahalla institutining tutgan o'zni va roli masalasini o'z oldiga maqsad qilib olmagan. Shuning uchun ham biz mazkur muammoni maxsus o'rganish zarur deb hisoblaymiz.

Mavzuni o'rganishning maqsad va vazifalari. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining rolini va uning jamiyat hayotida tutgan o'zini o'rganish va tahlil qilishdan iborat.

Mavzu maqsadidan kelib chiqqan holda uning quyidagi vazifalari belgilandi va qayt etildi.

✓ Mahallaning tarixi va rivojlanish bosqichlari o'rganish;

¹O'zbekiston Respublikasining qonuni."Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida". T., 2003. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni//Xalq so'zi.2003.31okt. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. –T.: Adolat, 2000. –B.212

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Obod mahalla yili" dasturi to'g'risida Qarori Xalq so'zi 2003-yil 8-fevral. N20

“Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi Nizom” //Xalq so'zi. 2004. Apr

³ Azizxo'jaev A.A. Demokratiya-xalq hokimiyati demakdir.-T.: 1996. B.235

⁴ L.Levitin. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.; O'zbekiston 2001. B.265

⁵ Qosimov N., Mustaqillik: kurashlar davri. –T.: 1997. B.179

⁶ Гребенкин А.Д. Урта Осиёда маҳалла. Т.: 1993. В.140

⁷ Eshquvatov V Mahalla: o'tmishda va bugun. - T., 2009. - B.154.

⁸ Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati institutlari. O'quv qo'llanma. T.: Akademiya. 2006. – B.126

⁹ Қувватов Н.Б. Ўзбекистонда ўтиш даври ва жамият тараққиёти. Т.: 2013. Б.136

¹⁰ Hasanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. T., 1996. B.220

¹¹ Jalilov Sh.I. Mahalla. O'zini o'zi boshqarishning huquqiy kafolati. – T.;O'zbekiston,1999. B.230

- ✓ Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari sharhlash;
- ✓ Mahalla davlat va jamiyat taraqqiyotining omili ekanligini asoslab berish;
- ✓ “Obod mahalla yili” davlat dasturi va uning amaliy ahamiyati tahlil qilish;
- ✓ “O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli” mavzu materialini samarali o'qitish bo'yicha tavsiyalar berish;
- ✓ “O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli” mavzusi yuzasidan pedagogik talim texnologiyalari asosida o'tkazilgan sinov dars ishlanmasi va taqdimoti ishlab chiqish.

Mahalla institutining fuqarolik jamiyati qurishdagi o'rni va rolini o'rganish bilan bir qatorda mavzuning yosh avlodga o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, bu orqali o'quvchi yoshlarda vatanga muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi tuyg'ularni shakllantirish tadqiqot ishining asosiy vazifalaridan biridir.

Mavzuning ob'yekti . Mazkur tadqiqot ishining ob'yekti mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatini qurishda mahalla instituti va uning vakolatlarini kengaytirish bo'yicha qabul qilingan huquqiy meyoriy hujjatlar.

Mavzuning predmeti esa fuqarolik jamiyatini qurishda mahalla institutining o'rni va rolini o'rganish, tahlil qilish va uni o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning ilmiy ahamiyati. Mavzuning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mavzu bitiruv malakaviy ish doirasida ilmiy materiallar asosida o'rganildi va tahlil etildi. Izlanish natijasida erishilgan yutuqlardan keng ilmiy omma foydalanishi mumkin.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi sifatida o'rganilgan mavzu O'zbekistonning eng yangi tarixi davriga tegishli bo'lib, mavzu yuzasidan berilgan xulosalardan Kasb – hunar kollejlari va Akademik litseylarning III bosqich talabalarini o'qitishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, mavzu yuzasidan berilgan sinov dars ishlanmasi va uning taqdimoti ham tarix sohasiga yo'naltirilgan o'rta maxsus kasb – hunar ta'limi muassasasi uchun tayyorlangan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilmasi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi Kirish, uchta bob, oltita masala, xulosa, ilovalar va adabiyotlar ro'yxati hamda glossariydan iborat bo'lib, 68 betni tashkil qiladi.

I Bob. O'zbekistonda mahallaning vujudga kelishi va taraqqiyoti.

1.1 Mahallaning tarixi va rivojlanish bosqichlari.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki paytlaridanoq barcha sohalarida jadal amalga oshirila boshlagan ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar o'zini-o'zi boshqarishning an'anaviy shakli hisoblangan mahalla faoliyatini takomillashtirish hamda uning vakolat doirasini yanada kengaytirish borasida ham muhim ahamiyat kasb etdi. U quyi hokimiyat organi, boshlang'ich ijtimoiy tashkilot maqomini oldi, uning bajaradigan vazifalari kengaytirildi. Bu esa xalqimiz tarixiy an'alarining tiklanishida, fuqarolarimiz ongida ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek xalqi oilaviy turmush tarzida mahalla, ya'ni qo'ni-qo'shnichilik jamoasi faoliyatini tarixiy-etnografik nuqtai nazardan o'rganish hozirgi kunda ilmiy ahamiyatga ega. Kishilarning o'zaro jamoa bo'lib yashash tarzi insoniyat tarixining qadimgi davrlariga borib taqaladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo hududlarida insonlarning birgalikda yashagan, umumiy mehnat qurollariga ega bo'lgan qon-qarindoshlar jamoasi so'nggi paleolit davrida shakllangan. Uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida ushbu uyushma ma'lum bosqichlarni bosib o'tib, qo'ni-qo'shnichilik jamoasiga aylangan¹.

Shu o'rinda L. Levitin²ning "O'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning eng oliy shakli mahalladir. Mahalliy jamoalarni, mahalliy o'zini o'zi boshqarishni tashkil etishning bu shakli asrlar osha saqlanib kelinmoqda, u o'zbeklar tarixining eng keskin burilish nuqtalarida ham saqlanib qoldi. Bugun ham u tarix qariga singib ketgani yo'q"² degan fikrlarini takidlash joizdir.

Mahalla arabcha "mahallum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma'nolarni bildiradi.

¹ Marifat, Mahalla – demokratiya maktabi. 2006. 15-aprel

² L.Levitin. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.; O'zbekiston 2001. 183b

Mahalla shaharlar ichidagi kichik bir hududiy birlik bo'lib o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda. Mahallada yashovchi insonlar tartib intizom, qo'ni-qo'shnichilik, manaviy ahloqiy normalar, urf-odatlar umumiy manfaatlar va majburiyatlarga amal qiladi. Mahalla jamoa bo'lib yashash tarzi hisoblanib, o'zini o'zi boshqarish tizimini tashkil etadi. Mahallani o'z hududida yashaydigan saylab qo'yilgan oqsoqol boshqaradi¹. Oqsoqol va uning kotiblari 1992 yildan boshlab 2,5 yil muddatga saylanadigan bo'ldi.

Mavzu tarixshunosligi haqida gapirishdan oldin ularga oid ma'lumotlar tarixiy-etnografik adabiyotlarda muayyan tarzda o'z ifodasini topganligini qayd etish o'rinli. Xalq turmush tarzi bilan bog'liq turli masalalar sharq xalqlari tarixi hamda madaniyatining qadimgi ma'naviy merosi zardushtiylik diniga oid adabiyotlarda ma'lum ma'noda o'zifodasini topgan. Ularda o'sha davrning axloqiy, falsafiy g'oyalarini aks ettiruvchi fikrlar kishilar ongida ijtimoiy-g'oyaviy qarashlarning shakllanishiga xizmat qilgan.

Zero, "Avesto"da jamiyatning birlamchi iqtisodiy asosi, ijtimoiy tarkibi oila (nmana), urug' jamoasi (vis), qo'ni-qo'shnichilik jamoasi, ya'ni ma'lum hudud yoki davlat (dahya) deb atalgan va ular jamiyatda o'zaro uyushqoqlikni ta'minlaganlar².

Zardushtiylar jamoasida kishilar turmush tarzi, jumladan, xo'jalik-iqtisodiy munosabatlari, diniy e'tiqodiga ko'ra bir qancha toifalarga bo'linganki, ularning jamiyatdagi mavqei Avestoda maxsus qayd etilgan.

Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimdagi va Hadisu shariflardagi qo'ni-qo'shnichilik aloqalari, qarindosh urug'chilik munosabatlariga oid ahloqiy qarashlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Jamoada farzandlar tarbiyasiga oid ahloqiy-ma'naviy qarashlar, inson kamolotiga oid ilg'or g'oyalar barcha davrlarda sharq mutafakkirlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu ma'noda turkiy

¹ Qosimov N., Mustaqillik: kurashlar davri. –T.: 1997. 49b

² Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi. T.: 2007. 102b

xalqlar, jumladan, o'zbeklar etnografiyasini o'rganishda muhim manbalardan biri o'rta asr mualliflari Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" hamda tarixiy etnografik manba Rizouddin ibn Faxruddinning "Oila" asarlari alohida o'rin agallaydi. Bu asarlarda qadimgi ajdodlarimiz turmush tarziga oid anchagina ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, qadimgi turkiy etnoslarning oilaviy turmush tarzi, urf-odat va marosimlari, diniy etiqod va tasavvurlari haqida etnografik ma'lumotlar mavjud. Ularda qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari haqida ham ma'lumotlar uchraydi.

Shu bilan birga, A.Navoiyning "Hayratul abror", "Mezon ul avzon" asarlarida turmushdagi maishiy ijtimoiy munosabatlar, oila nikoh masalalariga oid ahloqiy-ma'naviy qaydlar mavjud. Jumladan, A.Navoiy o'zining "Hayrat ul abror" asarida mahalla haqida shunday deydi: "Illo mahalla o'zi bir shaharchadir, ularning ittifoqi va o'zaro munozaralari vujudga keltirgan"¹ demak o'rta asrlardayoq shahar va qishloqlar aholisi ma'lum mahalla doirasida yashagan. XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib olimlar, sayyohlar tomonidan mahalliy aholi etnik tarkibi, turmush tarzi, xo'jalik faoliyatini ilmiy o'rganish boshlangan. Bu davrda o'lkaga tashrif buyurgan qator tadqiqotchilar o'z ishlarida masalaning u yoki bu tomonlari haqida ma'lumotlar berib o'tishgan. Jumladan, XIX asrning 70-yillarida o'zbeklar turmush tarzi haqida, xususan qo'ni qo'shnilar o'rtasida urug' jamoaviy munosabatlar, xotin-qizlar ahvoli, nikoh munosabatlari masalalarini A.D.Grebenkin² Zarafshon okrugi o'zbeklari misolida qayd etar ekan, qisman qo'ni qo'shnichilik munosabatlariga ham to'xtaladi. O'rta Osiyo xonliklari davrida ayniqsa mahalla qishloq jamoasini boshqarishda rais va oqsoqollarning o'rni katta bo'lgan. Jumladan, senator graf K.Kpalen mahalliy xalqlar turmush tarzidan kelib chiqqan holda, Turkiston o'lkasini tavg'ish qilishga oid yozgan hisobotlarida "Raislarning

¹ А.Навоий "Хайрат ул Аброр" Тошкент . 1989. 896.

² Гребенкин А.Д. Ўрта Осиёда маҳалла. 1993. 396.

faoliyati milliy hamda ijtimoiy xarakterda bo'lib, ular jamoani faqat an'anaviy urf-odatlar asosida nazorat qilganlar"¹ deb yozadi.

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlariga oid tarixiy ma'lumotlar ichida Toshkent shahri o'tmishi, mahalla va mavzelari tarixi, toponomiyasi hususida yozilgan V.A.Shishkinning "Ташкентский махалля" maqolasi, A.I.Dobromislovning "Ташкент в прошлом и настоящим", N.G.Mallitskiyning "Ташкентский махалля и мауза" asarlari bevosita biz o'rganayotgan masalani u yoki bu tarzda yoritishda katta ahamiyatga ega². Xususan, mualliflar asarlarida qayd etilgan manbalar Toshkent shahrining uzoq o'tmishi, o'sha davrdagi shahar mahalla va mavzelari, ularning joylashishi, tarixiy toponomiyasi xususida anchagina ma'lumot beradi.

XX asrning ikkinchi yarmidan keyin etnograflar mavjud sovet tuzumi siyosiy, ijtimoiy g'oyalari ta'sirida o'zbeklar jamoasida ro'y bergan milliy o'ziga xosliklarni to'la yoritish imkoniyatiga ega emas edilar. Shunday bo'lsada, o'zbeklarning an'anaviy erkaklar yig'ini mahallalarda o'tkaziladigan gap gashtaklarini kishilar uyushmasining dastlabki ko'rinishlaridan biri deb ta'riflagan G.P.Snesarev, ularning muhim ijtimoiy xususiyat kasb etganligini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, Buxoro shahri kvartal (mahalla) jamoasiga bag'ishlangan O.A.Suxreva qalamiga mansub "Квартальная община позднефеодалного города Бухаре" nomli fundamental tatqiqotda buxoro shahri mahallalarining XIX asr oxiri XX asr boshidagi hayotini mukammal va har tomonlama tahlil etishga harakat qilingan. Muallif shahardagi har bir mahallaga tasnif berar ekan, mahallaning ma'muriy boshqaruvi, faoliyatining o'ziga xos tomonlarini ochib beradi. Kerakli o'rinlarda urf odat va marosimlarda mahalla azolarining vazifalariga to'xtalib o'tadi³.

¹ Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va tajriba. – T.: Yangi asr avlodi.2006. 34b

² Azizxo'jaev A.A. Demokratiya-xalq hokimiyati demakdir.-T.: Sharq.1996. 28b

³ O.A.Suxreva. Квартальная община позднефеодалного города Бухаре. – Т., 1992. 49b

Etnograf olim K.Shoniyo­zov o'zbeklarning jamoaviy oilaviy turmush tarziga oid masalalarni Qashqadaryo viloyati koson tumani, Surxondaryo viloyati sariosiyo tumaniga oid materiallar asosida o'rganadi. Jumladan, u jamoaga xos munosabatlarni o'zbek qarluqlar va qang'lilar faoliyati misolida qisman yoritadi. Muallif o'z ishlarida XIX asr oxiri XX asrning birinchi yarmidakatta patriarxal oilada jamoa munosabatlari, qon qarindoshchilik munosabatlaridagi etnohududiy jihatlarini qayd etar ekan, jamoa an'analariga ba'zi o'rinlarda to'xtalgan¹.

Ma'lumki, mahalla oila kabi jamiyatning kichik bir bo'g'ini hisoblanadi. Azaldan O'rta Osiyo mintaqasida aholi turmush tarzida qo'ni qo'shnilarni o'rni katta bo'lgan. O'zaro munosabatlarning bunday shakli oila va mahallaning mustahkam aloqasini, xo'jalik, madaniy birligini qaror topdirgan. Shu o'rinda o'zbeklar an'anaviy hududiy qo'ni qo'shnichilik jamoasi, ya'ni mahalla xususida so'z yuritar ekanmiz, uning u yoki bu faoliyatini ifodalashda birinchi navbatda mahalladagi ijtimoiy aloqalardan kelib chiqib fikr yuritish maqsadga muvofiq. Mazkur uyushma tarixan shakllanishi va rivojlanishi jarayonida qishloq jamoasi, qo'ni qo'shni jamoa; shaharlarda mahalla, kvartal, guzar shaklida ham uchrashi qayd etiladi².

Insonlarning jamoa bo'lib yashashining dastlabki bosqichi ibtidoiy davrning so'nggi bosqichlariga borib taqaladi. Kishilik taraqqiyoti bosqichida inson hayotida juda katta sifat o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bu davrda kishilarning dastlabki jamoa bo'lib yashash kurtaklari paydo bo'la boshlagan³.

Mavzuni o'rganish jarayonida mahallaning mazmun mohiyati, tarixiy an'analaridan kelib chiqib uning taraqqiyotini quyidagi bosqichlarga bo'lishni lozim topdik:

¹ Shoniyo­zov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: 2001. 59b.

² Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий ёъналишлари.-Т.: «Ўзбекистон», 2002.24б.

³ Каримов И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. Т.1.-Т.: «Ўзбекистон»,1996. 104б.

- Qadimgi bronza davrining so'nggi bosqichlaridan boshlanib milodiy VIII asrgacha davom etgan. Ya'ni ilk shahar manzilgohlarida kishilarning jamoa bo'lib uyushuvi va dastlabki mahallaga xos belgilarning shakllana boshlagan davri;

- VIII asrdan XIII asrgacha bo'lgan davr. Ya'ni yirik shaharlarda mahallaga xos boshqaruvning shakllanishi va ularning o'zbeklar uchun ma'muriy hududiy tuzulmaga aylanishi;

- XIII-XVI asrlar, ya'ni mahallaning barcha katta kichik shaharlar uchun xos uyushma darajasiga ko'tarilishi va uning funksiyalarining oldingi davrlarga nisbatan ortish davri;

- XVI-XIX asrlar. Mahallaning so'nggi o'rta asrlardagi rivojlanish bosqichlari;

- XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha bo'lgan davr. Yani uning faoliyatining chor rossiyasi tomonidan nazoratga olinish davri;

- XX asr, ya'ni sovet davrida ma'muriy buyruqbozlik tizimining mahallalar faoliyatiga salbiy ta'siri va uning faoliyatining cheklanishi davri;

- O'zbekiston mustaqilligi yillarida mahallaning tarixiy an'analari va nufuzining qayta tiklanishi, uning vakolat doiralarining kengayishi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi sifatidagi maqomining qayta e'tirof etilishi davri.¹

Mustaqillik yillarida mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi isloh qilindi. Bu tizimni davlat hokimiyati tizimidan ajratish tomon yo'l tutildi. I.A.Karimov "O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" asarida "Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki davlatchiligimiz rivojlanib borgan

¹ Eshquvvatov V. Mahalla: o'tmishda va bugun. T.: 2009. 34-bet

sari boshqaruvni turli xil vazifalarini xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir”¹.

O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish, adolatli, ochiq fuqarolik jamiyati qurish bosh maqsadimizdir. Buning uchun bizda tayyor qolip va andozalar yo'q. I.A.Karimov dunyoda bir biriga o'xshamagan 2ta davlat yo'qligini aytib o'tadi. Demokratik jamiyatni xalqaro miqyosda tan olingan tamoyillari bor. Bularga insonning o'z xohish irodasining erkin bildirishi va unga amal qilishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlat hokimiyat organlarining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi. O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda anashu tamoyillarga asoslanadi.

O'zbekistonda mahalla xalq ishonchini qozongan adolat maskani hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmi bo'lib qoldi. Mahallalari obod bo'lgan mamlakatgina ildam qadamlar bilan taraqqiy etadi, albatta bog'liq milliy qadriyat va urf-odatlarimizni keng targ'ib qilish, ularni asrab-avaylash sohasidagi faoliyatini takomillashtirish mumkin².

Xullas xalqimizning necha ming yillik tarixiy va ma'naviy taraqqiyoti milliy davlatchilik negizi buyuk madaniyatimizning ildizlari ma'naviy meros, milliy hususiyatlarimiz va boy an'analарimizni yangi jamiyat qurushda tatbiq etish yo'lidan bormoqda. Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlarini aks ettiruvchi hamjihatlik g'oyasi va jamoat fikrining ustunligiga tayanuvchi sharqona demokratik qadriyatlar asos qilib olindi. Yangi jamiyat qurishda adolat va haqiqat g'oyasiga asoslanmoqda. Insonlar o'z qobiliyati va ehtiyojlarini namoyish etish va ularni amalga oshirish uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bunda har bir

¹ И.А.Каримов “Ўзбекистоннинг сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари”
Ватан саждагоҳ каби мақаддасдир. Т.3 Т.,Ўзбекистон 1996. 154б.

² Toshkent oqshomi. Mahallang – ota – onang.2003. 21-yanvar N14

insonning taqdiri, turmushi jamiyatdagi o'рни salohiyati mehnat qilish istagi hisobga olinmoqda.

1.2. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari

Muayyan davlat va jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi hayotning o'zi o'rtaga qo'yayotgan shart va talablarning hisobga olinishini taqozo etadi – bu esa o'z navbatida yangi muammolar va ularni bartaraf etish yo'lidagi yangi vazifalarni yuzaga keltiradi.

Yurtimizdagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonining ko'lami kengayib, samaradorligi oshib borgani sari jamiyat hayotining barcha sohalarni erkinlashtirish va demokratlashtirish zaruriyati tobora ko'proq sezilmoqda. Shu bois ham, Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning 14 – sessiyasida va Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning 1 –sessiyasida siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va manaviy sohalarni erkinlashtirishning hamda Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning 9-sessiyasida fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi. Shuningdek, fuqarolik institutlari va o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlanishi uchun eng maqbul tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni, yani tegishli qonunchilik asosini shakllantirish, tashkiliy - texnikaviy, moddiy shart sharoitlarini, davlat va jamoat birlashmalari hamkorligining samarali usul va uslublarini vujudga keltirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi”¹.

Mazkur talablardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirishda ularning huquqiy asoslarini yaratish yetakchi o'rin egallaydi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari quyidagi normativ hujjatlarda to'la o'z ifodasini topishi lozim:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonun;
3. “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonun;

¹ Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йуналишлари.Т-11. Т.: “Ўзбекистон” 2003.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
5. Vazirlar Mahkamasining qarorlari;"
6. "Obod mahalla yili" davlat Dasturi;
7. Fuqorolar o'zini o'zi boshqarish organlarining nizomlari hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlar.¹

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishining huquqiy asoslari to'g'risida gapirar ekanmiz, shuni ham nazarda tutish kerakki, mazkur institutning huquqiy negizini tashkil etuvchi huquq manbalari o'rtasida ularning yuridik tasir kuchi bo'yicha muayyan ierarxiya bosqichlari mavjud. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi birinchi marta mamlakatimiz konstitutsiyaviy tuzumining asoslaridan biri sifatida mahalliy o'zini o'zi boshqaruvni mustahkamlab qo'ydi. Ammo Konstitutsiya mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlari mavjudligini shunchaki tantanali ravishda elon qilibgina qolmay, balki yuqori darajada tanlash erkinligiga ega bo'lgan xalq tashabbusini joylarda rivojlanishini taminlovchi yuridik kafolatni o'zida mujassam etadi. Bunday kafolatlar O'zbekiston Konstitutsiyasining butun mazmunida o'z aksini topgan.

Konstitutsiyaviy tartibga solish konsepsiyasi qonun chiqaruvchilar uchun mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlarining ancha aniq tariflangan doirasini belgilab beradi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoidalarni ularning butun ahamiyati va nufuziga qaramay, qonun chiqaruvchilar ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun Konstitutsiyadan keyin fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning huquqiy asoslari – qonunlar hisoblanadi.²

Mustaqillik davrida mahallaning tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy maqomini mustahkamlash borasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Eng avvalo, mahalla atamasi tarixda birinchi marta Konstitutsiyaga kiritildi.

¹ Hasanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. T., 1996. 79-bet

² Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йуналишлари. Т-11 Т.: Ўзбекистон. 2003. 1576

O'nga aholining o'zini-o'zi boshqaruvining noyob shakli sifatidagi konstitutsiyaviy huquqiy maqom berildi. 1992 yilda O'zbekiston Prezidentning «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1998 yildagi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida»gi, 1999 yildagi «Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risidagi»gi Farmonlari, shuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator farmon, qonunlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning e'lon qilinganligi uning isbotidir.

Shuni takidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1993 –yil 2 –sentabrda “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”¹gi qonun qabul qilingach, Oliy Kengashning 1993 –yil 2 –sentabr qaroriga muvofiq hududiy jamoa o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonun va farmonlar o'z kuchini yo'qotdi. O'z kuchini yo'qotgan qonuniy huquqiy hujjatlar qatoriga O'zbekiston Respublikasining 1980 –yil 14 –martdagi “O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari posyolka Kengashi to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari qishloq Kengashlari to'g'risida”gi² Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 1983 –yil 14 –iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi shaharlarda, posyolkalarda, qishloqlarda mahalla qo'mitalari haqidagi Qonunni tasdiqlash to'g'risida”gi, va 1988 –yil 30 –noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy majlislari, yurar joylardagi yig'ilishlar to'g'risida”gi qonunini tasdiqlash haqida”gi³ farmonlar ham kiradi.

¹ Qarang: “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi O'zR 1993 yil qonuni//O'z R Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993. №9 322-modda.

² ЎЗР Олий Кенгашининг ведомостлари. 1980. №9 108, 109-моддалар.

³ ЎЗР Олий Кенгашининг ведомостлари. 1988. №34 398-модда.

“Respublika rahbariyati to’qsoninchi yillar boshida mahallaga katta umid bilan qaray boshladi. Prezident Islom Karimov o’shanda bunday degan edi: “Agar mahalla jamiyatda munosib o’rin egallasa, agar mahallada tinchlik va osoyishtalik bo’lsa, hamma narsaga kuchimiz yetadi””¹.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 –yil 12 –sentabrdagi Farmoniga muvofiq, “Mahalla” respublika xayriya jamg’armasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari jumlasiga tarixan tarkib topgan an’ana va odatlarni asrab –avaylash va boyitishga har tomonlama yordam berish; insonparvarlik va mehr –muruvvatni qaror toptirish hamda o’zaro yordamni tashkil etish; bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga yordam ko’rsatish fuqarolarning manaviy, marifiy, mafkuraviy ehtiyojlarini qondirish va boshqa masalalar kiradi. Jamg’armaning faxriy raisi Islom Karimov saylandi. Jamg’arma 1995 –yildan beri “Mahalla” deb nomlangan gazetani nashr etib kelmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mahallalarning qayta tiklanishiga, uning nufuzini ko’tarishga o’z vakolatlarini amalga oshirishning tasirchan mexanizmini yaratishga katta yo’l ochib berdi.

Prezidentning mahalla borasidagi olib borayotgan siyosati ikki muhim vazifani hal etishni ko’zda tutadi. Birinchisi, manaviy vazifa bo’lib, u xalqimizning ming yillik tarixida noyob, eng aziz ananalarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat.

Ikkinchisi, siyosiy vazifa bo’lib, Prezidentimizning mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklashda viloyat, shahar, tuman hokimliklari zimmasiga yuklangan ko’pchilik vazifa va huquqlarni fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlariga, yani mahallalarga berib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiya asosida tashkil etishda yangi va juda muhim imkoniyatlarga erishishdir.² Davrning yangicha talablariga

¹ Levitin L. O’zbekiston tarixiy burilish pallasida. T., O’zbekiston, 2001. 125b.

² Jalilov Sh.I. Mahalla. O’zini o’zi boshqarishning huquqiy kafolati. – T.;O’zbekiston,1999. 47b.

muvofiq yuzaga kelgan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'rishida"gi qonuni ijtimoiy –siyosiy, madaniy –marifiy hayotimizda katta voqea bo'ldi. Unda malum manoda jamiyatimiz taraqqiyotining uzoq yillarga mo'ljallangan yo'nalishlari belgilab berilgan.

Yangi qabul qilingan qonunda ilgari bo'lmagan bir qator yangiliklar kiritilgan. Bu avvalo fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomining aniq belgilab berilishida (7 –modda)¹; vaqti –vaqti bilan tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining hisobotlarini eshitish, o'z hududida joylashgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar rahbarlarining hisobotlarini eshitish, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish organlarining yangi institutlari kiritilishi (fuqarolar yig'ini kengashi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar, fuqarolar yig'inining taftish va mamuriy komissiyalari) joriy qilinishi; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga, xalq deputatlari viloyat Kengashlariga nomzodlar ko'rsatish uchun fuqarolarning nomzodlari bo'yicha hokimiyatning tegishli vakillik organlariga takliflar kiritish, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilish (10 –modda); ikki yoshga to'lmagan bolalari bor ishlamaydigan onalarga nafaqalar tayinlash (10-12 –moddalar)² va boshqa masalalar o'z ifodasini topgan.

Mazkur normalar "Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'rida"gi qonunining 1999 –yil 14 –aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahriri asosida rivojlantirildi. Unga asosan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibiy tizimlari kengaytirildi. Jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida yarashtiruv komissiyasi tuzish; "Mahalla posboni"

¹ O'zbekiston Respublikasining qonuni."Fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlari to'g'risida". T., 2003. 4b

² O'zbekiston Respublikasining qonuni."Fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlari to'g'risida". T., 2003. .5-6b

jamoatchilik tuzilasini shakllantirish; fuqarolar yig'inining yoshlar o'rtasida tashkiliy –tarbiyaviy va ommaviy –sport ishlarini olib boruvchi pedagog –tarbiyachisini tayinlash¹.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish – bu fuqarolarning mahalliy ahamiyatga ega masalalarni mustaqil hal etish bilan bog'liq bo'lgan hamda ularning tashabbusi bilan amalga oshiriladigan faoliyatidir. “Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'rida”gi qonunining 9-moddasida fuqarolar yig'ini huquqiy vakolatiga tarif berilgan. Jumladan, “Fuqarolar yig'ini – fuqarolarni o'zini o'zi boshqarishining yuqori organi bo'lib, aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amalda qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga egadir”² deb ko'rsatilgan.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining maqsadlaridan biri odamlarni o'zaro yaqinlashtirish, ularni yagona maqsadli jamiyatga birlashtirishdir. Shuning uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi – eng muhim ijtimoiy talim manbai, xalq hokimiyatining chinakam organi, har bir davlatning siyosiy va ijtimoiy hayotini demokratik jihatdan tashkil etishning zarur elementidir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi davlat ichidagi davlat emas: u jamiyat va davlat ishlari bilan boshqaruvining umumiy tiziminiga uyg'unlashib ketgan bo'lib, unda o'ziga xos o'rinni egallaydi, muayyan mustaqillikka ega. Shu bois ”Fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonun belgilagan doiradagi mahalliy masalalarni hal etishda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari mustaqilligining malum jihatlari to'g'risidagina gapirar mumkin.

Mazkur qonunning 7 –moddasiga asosan quyidagilar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, deb belgilangan:

¹O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining qonuni//Xalq so'zi.2003.31okt.

² O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. –T.: Adolat, 2000. 212b.

“Shaharchalar, qishloq ovular, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolar yig’inlari fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlaridir”¹.

Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari yuridik shaxs maqomiga ega bo’lib, ular belgilangan namunadagi muhrga egadirlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olinishi kerak.

Mazkur qonunning yangi tahririga kiritilgan O’zbekiston Respublikasining 2003-yil 30 –avgustda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”²gi qonuniga asosan 8; 9-moddalarida fuqarolar yig’inining organlari va fuqarolar yig’ini to’g’risidagi normalar mustahkamlandi.

“Mahalla” xayriya jamg’armasining 2003 –yilning yakuni bo’yicha bo’lgan malumotiga ko’ra, O’zbekiston Respublikasida jami 9789 fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari bo’lsa, shulardan 8324 tasi yuridik shaxs maqomiga ega³.

Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarning oliy organ fuqarolar yig’ini hisoblanadi va aholi manfaatlarini ifodalash, uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Respublikada jami fuqarolar yig’inining 109 tasi shaharlarda, 1336 tasi qishloqlarda, 141 tasi ovullarda, 2044 tasi shaharlarda faoliyat ko’rsatmoqda. Ushbu organlar raislaridan 8203 nafari oylik maosh bilan taminlangandir⁴.

Mahalliy o’zini o’zi boshqarishning Yevropa Xartiyasida takidlanishicha, mahalliy o’zini o’zi boshqarish organlari, milliy iqtisodiy

¹ O’zbekiston Respublikasining qonuni.”Fuqarolarning o’zin o’zi boshqarish organlari to’g’risida”. T., 2003. 4b

² O’zbekiston Respublikasining qonuni. “O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”//Xalq so’zi. 2003. 31-avg.

³ O’zbekiston Respublikasi “Mahalla” xayriya jamg’armasi Respublika boshqaruvining 2004-yil fevraldagi navbatdagi plenum materiallaridan. 3b

⁴ O’zbekiston Respublikasi “Mahalla” xayriya jamg’armasi Respublika boshqaruvining 2004-yil fevraldagi navbatdagi plenum materiallaridan. 5b

siyosat doirada, o'z faoliyatlari davomida bemalol foydalana oladigan darajada shaxsiy moliyaviy mablag'larga ega bo'lish huquqiga ega¹

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining huquqiy asoslarini tashkil etadigan meyoriy hujjatlar jumlasiga fuqarolar yig'ini qabul qilgan qarorlarni ham kiritish mumkin. Bu asosan, mahallada istiqomat qiluvchilarning umumiy majlislarida o'z hayotlarida oid jiddiy masalalarni ko'rib, hal qiladigan fuqarolar yig'ini kengashining qarorlaridir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hujjatlari orasida fuqarolar yig'ini to'g'risidagi nizom alohida o'rin tutadi.

Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi Nizom² – o'zini o'zi boshqarish asosidagi fuqarolar kengashini tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga solib turuvchi asosiy meyorlarni o'z ichiga oladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari nizomining tasdiqlanishi mazkur fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining mavjudligini yuridik jihatdan etirof etilishiga omil bo'lib xizmat qiladi. Nizom fuqarolarning joylardagi boshqaruv rolini belgilab beruvchi o'zini o'zi tashkil etish va idora qilishning huquqiy kafolati deyish mumkin. U mahalla faoliyatini tashkil etishda va yuritishda muhim rol o'ynaydi. O'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar keng ko'lamli bo'lsada, ammo mutaxassis bo'lmaganlarga har doim ham tushunarli emas. Nizomlar qonunlarning ko'pgina meyorlarini tartibli ravishda mahalliy sharoitlarga moslashtiradi, bu meyorlarni tartibli ravishda ifoda etadi, mahalliy mamuriyat ishlarini yengillashtiradi, aholi o'rtasida mahalliy o'zini o'zi boshqarishning asl manosi va tavsifi tog'risida aniq tasavvurlarni shakllantiradi. Nizom tasdiqlangan vaqtdan boshlab mazkur hududiy birlik – mahalla – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida amal qila boshlaydi.

¹ Konrad Adenaur Fondining "Birlashgan Millatlar tashkilotining fuqarolarni mahalliy o'zini o'zi boshqarish Xartiyasi yo'lida: XXI asr talabi" xalqaro anjuman materiallari. T., 2000. 5b

² "Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi Nizom" //Xalq so'zi. 2004. Apr.

Mahalla ijtimoiy institut sifatida mamlakat taqdiri uchun g'oyat muhim vazifalarni hal qilish imkoniyatini berishi tamomila ravshan. Davlat hokimiyati mahalliy o'zini o'zi boshqarishning kuchli ildizlaridan doimo hayotiy kuch qudrat olib turmasa, uning faoliyatini barqaror va samarali bo'lmasligiga aminmiz.

Yuqorida bayon qilinganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, respublikmizda qadimdan o'ziga xos demokratiya prinsiplariga asoslangan o'zini o'zi boshqarish tizimi tarkib topgan bo'lib, mustaqillik yillarida bu jarayon tobora rivojlandi, endilikda ular mustaqil organ sifatida joylarda davlat va jamiyat hayotiga oid masalalarni hal qilmoqda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqaruvining deyarli barcha huquqiy asoslari yaratildi. Mahallaning huquqiy maqomi ilk marotaba Konstitutsiyada mustahkamlandi. "Fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bugungi kunda ushbu qonun normalarning tobora takomillashtirilishi fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlarining davlat va jamiyat ishlarida to'la ishtirok etishlarini taminlaydi.

II-bob. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli

2.1 Mahalla davlat va jamiyat taraqqiyotining omili

Mahalla-azaldan yurtimizda tarbiya o'chog'i, ota bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlar maskani, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi sifatida etirof etib kelinadi. Odamlar o'rtasida mehr oqibat, ahillik hamda totuvli ehtiyojmand kishilar holidan xabar olish, to'y tomosha, hashar va marakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish kabi el-yurtimizga xos urf – odat va an'analar, avvalambor mahalla muhitida shakllangan.

O'zbekiston zaminidagi arxeologik manbalar va tarixiy adabiyotlar mahalliy aholining asrlardan buyon hududiy birliklarga qo'rg'on va mahallalarga birlashib, ma'lum tartiblar asosida yashab kelayotganidan dalolat beradi. Jumladan, sopollitepa yodgorliklari, "Avesto" xabarlari, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari yoki A.Navoiyning "Hayrat ul abror" dostonidagi ma'lumotlar ham buning yorqin dalilidir¹.

Mahallalar, ayniqsa, sohibqiron Amir Temur tuzgan mashhur davlatda rivojlandi, gullab yashnadi. O'sha vaqtga kelib mahallalarda yashash istiqomat qilish fuqarolarning kasbi kori asosida tashkil topgan. Temirchilar, qurol yarog'sozlar tikuvchilar, charmdo'zlar, gilamdo'zlar, kulolchilar, quruvchilar va boshqa hunarmandlar bir joyda mehnat qilib hayot kechirgan edilar. Buyuk sarkarda amalga oshirgan ulkan harbiy yurishlarda mahallalarning bu namoyandalari faol va uyushgan holda qatnashgan.

O'tmishimizning xonlik zamonlariga nazar tashlasak, o'nboshi, ellikboshi, yuzboshi va aminlarning har biriga o'z darajasida huquq berilib, xalq ularning chiqargan hukmlarini qonun deb bilgan. Mahallaning og'irligi, tashvishlari podshohlikka deyarli yetib bormagan.

¹ Asqarov A O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi T.; 2007. 134b

Rossiya bosqinidan ilgari Toshkent 160 mahallani o'z ichiga olgan to'rt dahadan tarkib topgan bo'lib, ularning maxsus jamoa kengashi, hokimligi bo'lgan. Mazkur kengash faoliyatida mahalliy hokimiyat vakillari – xalq tomonidan saylangan yuzboshi va mingboshilari ham qatnashganlar¹.

Yuqorida keltirilgan fikr va muloxazalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, mahalla va undagi boshqaruv tizimi qadimda mahalliy hokimiyatning o'ziga xos bir shakli, ko'rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan. Mahallani boshqarish jamoatchilik asosida olib borilib, o'zining tartib qoidalariga ega bo'lgan. Mahalla aholisi bu qoidalariga bo'ysinishi shart bo'lgan. Mahalla oqsoqolining va jamoatchilik fikri, yig'ilish qarori hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Mahallalarda hukmron bo'lgan jamoa ruhi aholida o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam, ahillik hurmat, odob axloq tuyg'ularini shakllantirishda katta yordam bergan².

Zero mahalla – bu fuqarolar intilishi va sa'y harakati tufayli muayyan milliy axloqiy va maishiy tartib qoidalarga rioya qilish, maraka mavrid, yaxshi yomon kunlarni birga o'tkazish, ahillikni ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy iqtisodiy va hududiy jamoa bo'lib azaldan davom etib kelayotgan boshqaruv tizimi va ezgu qadriyatdir. Bu tarixiy, an'anaviy va doimo yosh navqiron, qudratli hodisani shunday ta'riflash joizdir.

O'zbek xalqi 1991 yilda o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng mamlakatimizda davlat va jamiyatni boshqarishning o'ziga xos shakli qaror topdi. Bu aynan uzoq tarixga ega bo'lib, hatto chorizm va sho'ro mustamlakachiligi davrida, qattiq tazyiq ostida ham o'z ta'siri va ahamiyatini yo'qotmagan mahalla an'anasidir. 1993 yilning sentabrida qa'bul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun hamda 1998 yilning may oyidan kuchga kirgan uning yangi tahriri joylardagi mahallalarga katta huquq va vakolatlar

¹ Jalilov Sh.I. Mahalla. O'zini o'zi boshqarishning huquqiy kafolati. T.: O'zbekiston. 1999.47b

² Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. 2001. 184b.

beradi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi ularning Konstitutsiya va boshqa qonunlar bilan kafolatlangan hamda tarixiy qadriyatlardan, an'analaridan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyat deb tan olindi va bu yo'lda davlat tomonidan har tomonlama qo'llab quvvatlanib kelmoqda.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, davlatimizning buyuk kelajagini jamoatchilik, fuqarolar bunyod etadi. Buning ma'nosi – mahalla o'zining hayotini hamda davlat rivojlanishi va kelajagini bunyod etishga bevosita mas'uldir. Chunki oddiy xalqning hayoti va muammolarining mahalladan yaxshi biladigan tashkilot yoki organ yo'q. Shu ma'noda Prezidentimizning "hammadan oldin odamlarning issiq sovug'idan, g'am-tashvishidan xabar topadigan kim? Albatta mahalla ahli. Turmush tarzini izga solish, kundalik muammolarni hal etish uchun, eng avvalo, mahalla faoliyatini kuchaytirishlariga yordam berish zarur"¹ degan fikr va tavsiyalari ayni muddaodir.

Xo'sh bugungi kunda fuqarolar tashabbusi va sa'y-harakati doirasida qanday masalalar o'z yechimini topmoqda?

Ular tomonidan, asosan qaysi yo'nalishlarda ish olib borilayapti? Mahallalar, birinchidan, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar ishtirokini ta'minlash, tajriba va ko'nikmalar ortirishda ko'mak berish, o'z hududida ijtimoiy-moddiy, ma'naviy marifiy vazifalarni hal etishda aholini birlashtirish madaniy ommaviy tadbirlarni o'tkazish, davlat siyosatini joylardagi ijrochisi sifatida mahalliy davlat organlarining tayanchidir.

Ikkinchidan, fuqarolarning huquq va man'faatlari buzilgan holda ular nomidan tegishli mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga murojaat qiladi. Ushbu hudud aholisining huquq hamda manfaatlarini muhofaza qiladi. Shuningdek, muhtoj oilalarning uyidan foydalanish

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон келажиги буюк давлат. Т.1.-Т.: «Ўзбекистон»,1996. 104-108, 123-130-б.

harajatlari va kommunal xizmatlari harajatlarini moddiy yordam ko'rsatish orqali to'laydi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining uchinchi bir o'ziga xos jihati, ularning jamoa vakilligi shaklida faoliyat yurgizishidir. buning ma'nosi shundaki fuqarolar yig'ini davlat nomidan emas, qonunga binoan muayyan ishlar doirasida ma'lum bir hududiy jamoa nomidan harakat qiladi., ayni vaqtda, fuqarolarning jamiyat taraqqiyotida bevosita hissa qo'shishlariga imkoniyat yaratadi.

“Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili o'z-o'zidan ma'lumki, u davlat organlarining vakolatlarini asta sekinlik bilan bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyatiga o'tkazishni taqozo etadi¹. Prezidentimiz mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bu g'oyani ilgari surgan edi. SHu boisdan ham 1999 yil 14-15 aprelda Oliy Majlis 14-seesiyasida **“Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”**²gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Bu qonunda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining maqomi to'liq belgilab berildi. Ular faoliyatining asosiy printsiplari demokratik, oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy hokimiyatga molik masalalarni echishda mustaqillik, jamoatchilik asosida o'zaro yordam holatlari belgilab berildi. O'zini-o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilab qo'yildi.

Respublika miqyosida oqsoqollar Kengashining tuzilishi jahon tajribasida yangilikdir. Bu bilan O'zbekiston dunyodagi davlat boshqaruvi sohasida chinakam xalqchil shaklidagi o'ziga xos milliy davlat tuzilmasining asoschisi bo'lib qolishidan darakdir.

Demak, qonunga ko'ra fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalla davlatga, jamiyatga eng yaqin idoradir. O'zini o'zi boshqarish tizimining,

¹ Каримов И.А. Ҳозирги даврда демократик ислохотларни чуқурлаштиришнинг долзарб вазифалари. Т.5.-Т.: «Ўзбекистон», 1997. 104б.

² O'zbekiston Respublikasi qonuni. “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”.Т.: 1999y.

mahallaning tub ma'nosiga, mohiyatiga Prezidentimiz yuksak baho berib kelmoqda. 1999 yil 26 martda Xorazm **“yoshulli”** so'zini ta'riflab berganlaridek, chin ma'noda komil oqsoqol bo'la olsa, davlat-mamlakat, ko'pchilik aholi manfaatini hisobga olib, xalqqa tayanib, yoshidan, xizmat vazifasidan, e'tiqodidan qa'iy nazar, yakka-yakka shaxslarning ruhiy kechinmalari, xatti-harakatlarini, intilishlarini ezgulikka yo'naltirishga muyassar bo'la oladi. Qonunda ta'kidlanishicha, mahallaning 3 ta tayanchi bor: 1) mahalla yig'ini vakillari, 2) din ulomalari (imomlar), 3) mahalla posbonlari-nozirlar¹. Bugungi kunda kuchli jamiyatni barpo etishda 260 dan ortiq jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida mahalla tarixiy va rivojlangan mamlakatlardagi tushunchada aniq belgilangan ijtimoiy-demografik, madaniy-ma'naviy va hududiy-ma'muriy birlik sifatidagi maqomga erishdi. U o'z hududidagi fuqarolar o'rtasida an'analar va urf-odatlar, insoniy, xo'jalik, huquqiy munosabatlar birligini tashkil etgani holda fuqarolarning o'zaro ijtimoiy munosabatlarini bog'lab turish vositasiga aylandi.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab Prezident I.A.Karimov mahallalarni fuqarolik jamiyatining omili deb, bildi va ularni har tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirib kelmoqda. Prezident I.A.Karimov 1995 yildayoq shunday fikrni bildirgan edi: “Ma'lumki, asrlar mobaynida mahallalarda ko'pdan-ko'p hayotiy muammolar o'z yechimini topib keladi. To'y-ma'rakalar ham, hayitu hasharlar ham mahalla ahlisiz o'tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda

¹ O'zbekiston Respublikasi qonuni. “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”. T.: 1999y.32-bet

mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi lozim"¹.

Hozirgi davrda mahalla yo'nalishida olib borilayotgan ishlar ikkita yo'nalishni nazarda to'tadi. Birinchisi ma'naviy vazifa bo'lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat. Ikkinchisi, siyosiy vazifa bo'lib, u Prezident I.A.Karimovning mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash, shuningdek, viloyat, shahar, tuman hokimliklari zimmasiga yuklangan ko'pchilik vazifa va huquqlarni fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlariga, ya'ni mahallalarga berib, ular maqomini joy-joyiga qo'yib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi va juda muhim imkoniyatlarga erishishdan iboratdir².

Ayniqsa, mahalla fuqarolar yig'inlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalari a'zoliciga nomzodlarni okrug saylov komissiyalari tasdiqlashlari tavsiya etish huquqi berilgan. Shuningdek, mahalla fuqarolar yig'inlariga xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga to'g'ridan-to'g'ri nomzod ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga tashabbus guruhlar tomonidan ko'rsatiladigan nomzodlarni taklif etishda ishtirok etish kabi vakolatlar va huquqlarning berilishi mahallalarni o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida jamiyatimiz siyosiy hayotidagi o'rni yanada oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat

¹ Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий ёъналишлари. Т.11-Т.: «Ўзбекистон», 2003. 123b

² Begmatov A.S. Manaviyat falsafasi yohud I. Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. T.: Akademiya. 2000. 87b.

va davlat boshqaruvidagi o'rnini ko'tarishning muhim bosqichini boshlashning asosiy yo'nalishi bo'lgan quyidagi fikrni bildirdi: «Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir»¹. Albatta, davlat tomonidan mahallalarga katta boshqaruv vakolatlarini berishda avvalo, ularning aholi faolligini oshirishdagi o'rnini yuksaltirish ko'zda tutildi. Chunki, mahalla fuqarolar yig'inlarida etarlicha huquq bo'lmasa, ular o'zini o'zi boshqarish funksiyalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'la olmas edilar. Shuningdek, mahallalarning aholi va davlat oldida mas'uliyat sezishlari uchun ham avvalo keng huquqlarga ega bo'lishlari lozim edi.

Hozirgi davrda jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadlaridan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig'inlariga boshqaruvning turli yo'nalishlariga etakchilik qilish vakolatlari berildi. Mahallalar o'z hududida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilib berishda bevosita ishtirok etadilar: qariyalar, faxriylar, etimlar, baynalmilal-harbiylar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar manfaatlarini himoya qilinadi; mahalla faollarining mazkur faoliyatda ishtirok etishiga boshchilik qiladi; insonni ma'naviy yuksalishi va amaliy tashabbuslarini namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi; fuqarolar moddiy va ma'naviy jihatlardan qo'llab-quvvatlanadi.

Mahalla fuqarolar yig'ini ijtimoiy taminot organlari va boshqa homiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz kishilarga beg'araz moddiy yordam ajratish ishining barcha tashkiliy jihatlarini o'zi mustaqil ravishda bajaradi. Shu bilan birga, mahallalar o'z hududlarida ekologik muammolarni yechish va aholi moddiy ahvolini yaxshilash, hashar yo'li bilan ko'kalamzorlashtirish,

¹ Каримов И.А. Биз танлаган ё'л демократик тарақиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йули. Т. II. –Т.: Ўзбекистон, 2003. 29-б.

tozalash ishlariga jalb qilish, mahalliy aholi o'rtasida atrof-muhitni asrash yuzasidan tushuntirish va tarbiyaviy ishlar olib borishga ham mas'uldir. Albatta, bu kabi faoliyatlar fuqarolar faolligini oshirish vositasida amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ko'plab qonunlar loyihalari, Konstitutsiyaga kiritiladigan qo'shimcha va o'zgarishlarni o'zida ifodalagan umumxalq referendumlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish avvalo mahalla ahli va faollari tomonidan muhokama qilinmoqda va qo'llab-quvvatlanmoqda. Boshqacha aytganda, mahallalar siyosiy qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini faollashtirishning muhim vositasi ekanligini hayotning o'zi isbotlab berdi. Mamlakat siyosiy hayotida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini ta'minlab beruvchi asosiy bo'g'in - bu mahalla fuqarolar yig'inlaridir. Shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan birdan-bir boshqaruv tizimi ham mahalla fuqarolar yig'inlaridir¹.

Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi, uning viloyat, shahar, tuman bo'limlari bilan hokimliklar hamkorligida har yili «Eng yaxshi mahalla», «Eng ibratli oqsoqol», «Mahalla jonkuyari», «Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli» shiori ostida muttasil ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelindi. Ko'rik-tanlovlar g'oliblari har yili obro'li komissiyalar tomonidan maxsus nishonlar, qimmatli esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar. Mazkur tadbirlar mahallalarni obodonlashtirish, ozoda saqlash, ayniqsa yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi².

Mustaqillik davrida mahallalar fuqarolar yig'inlari oqsoqollari, «Mahalla» jamg'armasi va uning mahalliy tashkilotlari rahbarlarining sifat tarkibi yaxshilanib bordi³.

¹Каримов И.А. Эл-юртга ҳалол, виждонан хизмат қилиш ҳар бир раҳбарнинг муқаддас бурчи. Андижон вилоят халқ депутатлари Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқ. «Ишонч», 2004. 26 май.

² Toshkent oqshomi. Otang – mahalla, onang – mahalla. 2003.19-fevral N34.

³ Azizxo'jaev A.A. Demokratiya-xalq hokimiyati demakdir.-T.: 1996. 223b.

Huquqiy demokratik davlatda saylov qonunlari va uni o'tkazish muhim o'rinni egallaydi. Buning yorqin isbotini «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish» organlariga saylov o'tkazish ham istisno emas.

2003 yil 12-27 noyabr kunlari respublika «**Ijtimoiy fikr**» jamotchilik fikrini o'rganish markazi mamlakatning turli mintaqalaridagi 2044 ta respondent ishtirokida o'tkazgan so'rov tadqiqoti aholining aksariyat qismining (69,4%) saylovlardan xabardorligi ma'lum bo'ldi. Mazkur saylovlar fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongi yuksalganligini ko'rsatdi. Chunonchi, 35 ta yig'in raisligi va oqsoqolligiga ko'rsatilgan nomzodlar saylanmay qoldilar. 74 ta yig'inda rais va oqsoqollarning 2,5 yillik faoliyati qoniqarsiz, deb topildi. Barcha saylovlar davomida ko'rsatilgan 21306 ta nomzodlardan 8360 tasi saylanganligi, ularning muqobillik asosida o'tganligini, fuqarolarga tanlash imkoniyati berilganligini ifodaladi¹.

Yangi saylangan fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) ning 75,7 foizi oliy ma'lumotli (2001 yilda 73,2 % edi) nomzodlar ichidan saylandi. Ularning 49,1 foizi 50 yoshgacha bo'lgan kishilardan iborat bo'ldi. Saylangan oqsoqol yoki raislarning 8,7 foizini ayollar tashkil etdi. Oqsoqollarning to'rtidan biri mazkur lavozimga ilk bor saylandilar. Mazkur saylovlardagi majlislar, undagi muhokamalar, bahs va munozaralar mahalliy davlat hokimiyati organlari vazifalarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish borasidagi siyosatni fuqarolar qo'llab-quvvatlayotganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, saylovlar davlat qurilishi va jamiyatning barcha sohalarini erkinlashtirishda, fuqarolar yashash joylaridagi muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda, aholi faolligini oshirishda mahallalarning o'rni va ahamiyati yildan-yilga ortib borayotganligini, «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» kontseptual siyosiy

¹ Mahalla. Mahallada jamoatchilik fikri qanday? 2003-y 3-dekabr.N46

dasturni hayotga tatbiq etish o'zining ijobiy va samarali natijasini berayotganligini namoyish etdi¹.

“Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va maslahatchilari saylov to'g'risida”gi qonunga ko'ra mamlakatimizda 2006 yil may-iyun oylarida bo'lib o'tgan fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi o'tkazildi. Bu saylovda 10 mingga (9941) yaqin fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylandi (8843 nafar fuqarolar yig'ini rais (oqsoqol)larini saylash uchun 27 715 ta nomzod ko'rsatildi) 97273 nafar rais maslahatchilari ham saylandi. Saylanganlardan 6016 kishi yoki hamma raislarning 68 foizi oliy ma'lumotga ega, 4177 nafari (47%) 50 yoshga, 818 nafari (9%) esa 40 yoshga etmagan fuqarolardan iborat. Ular orasida ayollar soni ko'paydi: 2003 yilda ular 734 nafar (9%) bo'lgan bo'lsa, 2006 yilda 981 nafar (11%)ni tashkil etdi².

Yuqorida aytilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, qadimdan mahallalar tartib intizom, ozodalik, urf odat va an'analarni qadrlash ishlarida, insonlarning bir biriga mehr oqibatli bo'lishiga juda katta mas'uliyatli vazifalarni bajargan. Eng asosiysi, jamoatchilik boshqaruvining ahamiyati yuqori bo'lgan. Hozirda bu maqom davlatimiz mustaqilligi nemati bilan shakllanmoqda o'smoqda, xalqimizning roziligi va xursandchiligiga sabab bolayotir. Bu esa noyob milliy qadriyatimiz va muhim boshqaruv omili – mahalla tizimining porloq istiqbolining ishonchli kafolatidir.

¹ Каримов И.А. Қонун ва адолат устуворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. Сурхондарё вилоят халқ депутатлари Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзланган нутқ. Т-12. Т.: Ўзбекистон. 2004. 298б.

² Fayzullaev T., Kenjaev E. Demokratiyaning amaldagi ifodasi // “Jamiyat va boshqaruv”, 2006, №4. –35–37-b.

2.2 “Obod mahalla yili” davlat dasturi va uning amaliy ahamiyati

Mahalla institutining huquqiy asoslarini yaratish, ularning zamon talablariga mos holda takomillashtirib borilishi jamiyatimiz siyosiy iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas bir qismi sifatida ushbu noyob tuzulmaning maqomini mustahkamlashga muhim omil bo'ldi.

Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, mahalla insoniy fazilatlar kamol topadigan, asriy an'analarimiz saqlanib qolgan makondir. Biroq mahallalar faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ba'zan eskilik sarqitlarini an'analardan farqlashmayotganlarini ko'ramiz. Ayni paytda tadbirkorlik va ishbilarmonlikni faqat moddiy foyda orttirish yo'li deb bilganlar ham uchrab turadi.

Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mahallalarning roli yetakchi bo'lib, bu yerdagi ma'naviy muhit milliy g'oyaning umuminsoniy va milliy qadriyatlarini belgilab beradi¹.

Jamiyatdagi barcha insonlar manfaatlari kesishgan joy ham – bu mahalladir. Unda o'sha qiziqish va ehtiyojlardan tortib, har bir oilaning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari uyg'unlashadi. Shu bois ham barcha muammo va ularning yechimlari kaliti mahalladan izlanadi. Prezidentimizning “Mahalla - haqiqiy demokratiya darsxonasidir”², degan purhikmat iboralarining asl ma'nosi ham shunda. O'zini – o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf – odatlari, demokratik an'analari, oilani mustahkamlash borasidagi o'lmas qadriyatlari bilan erkin fuqaro tarbiyasida muhim rol o'ynaydi.

Hayotimiz mezonini bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 10 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan yig'ilishda Prezident Islom Karimov Bosh Qomusimizning mamlakatimiz hayotida tutgan o'rni, huquqiy va adolatli jamiyat qurishdagi ahamiyati va mohiyati

¹Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т-1. Т.; Ўзбекистон 1996. 2126

² Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т-2. Т.; Ўзбекистон. 1996. 786.

haqida gapirib turib, 2003 –yilni “Obod mahalla yili” deb atash haqidagi taklifini kiritdi¹. Davlat rahbari har qaysi inson, har qaysi xonadon hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida odamlarning boshini qovushtirish, turar joylarda ahillikni mustahkamlashda, o’zini o’zi boshqarish tizimini joriy etishda mahallaning roli kundan kunga oshib borayotganligi haqida so’zlar ekan, jumladan shunday deydi: “Avvalo shuni aytish kerakki, “obod” degan so’z, “obod mahalla” degan ibora zahirida teran mano bor. Obod mahalla xalqimiz, millatimiz nafaqat ko’rkam va chiroyli shu bilan birga aynan tinchlik va osoyishtalik, o’zaro mehr – oqibat, ahillik, qut – baraka hukmron bo’lgan joylarni tasavvur qiladi”².

Bu so’zlardan mahallaning hayotimizdagi yuksak mavqei, uning qonuniy, huquqiy asoslari har tomonlama mustahkamlanganligi bu idorani jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy va manaviy hayotining ajralmas qismi, sifatida nechog’li kuchli ekanligi ko’rinib turibdi.

Shu maqsadda, Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan 2003-yil „Obod mahalla yili“ deb e’lon qilindi va „Obod mahalla yili“ dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo’yicha respublika komissiyasi tuzildi³. Mazkur komissiya yil davomida amalga oshirilishi zarur bo’lgan tadbirlarning dasturini ishlab chiqdi. 2003-yil 7- fevralda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Obod mahalla yili“ dasturi to’g’risida Qarori⁴ e’lon qilindi.

Mazkur dastur quyidagi muhim maqsad va vazifalarni hayotda ro’yobga chiqarishga qaratilgan:

- mahallaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotidagi roli va maqomini mustahkamlash;

¹ Toshkent oqshomi. Otang – mahalla, onang – mahalla. 2003-y.19-fevral N34.

² Каримов И.А. Ҳаётимизнинг, тараққиётимизнинг ҳуқуқий асоси. Биз танлаган ёл – демократик тараққиёт ва марифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т-11. Т.: Ўзбекистон. 98-бет.

³ Xalq so’zi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi „Obod mahalla yili“ dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo’yicha respublika komissiyasi tuzish to’g’risida.2002-y 16-dekabr

⁴ Xalq so’zi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Obod mahalla yili“ dasturi to’g’risida Qarori 2003-yil 8-fevral. N20

- mahalla faoliyatining amaldagi me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, uning vakolatlarini kengaytirish va fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi mas'uliyatini oshirish;
- mahalla faoliyatining moddiy bazasini mustahkamlash, mahalla hududida tadbirkorlikni, xizmatlar ko'rsatish va savdo sohalarini rivojlantirish, shular hisobiga yangi ish o'rinlari barpo etish;
- mahallaning ijtimoiy-infratuzilmasini rivojlantirish, uning hududlarini obodonlashtirish, kommunal tarmoqlarni rivojlantirish;
- mahalla tomonidan kam ta'minlangan oilalarga aniq yo'nalishli moddiy yordamni va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- keksa avlodga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish;
- mahalla aholisiga tibbiy va sanatoriy-kurort xizmati ko'rsatilishini yaxshilash, bolalar sportini rivojlantirish;
- mahallaning aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy adolat, o'zaro mehr-oqibat va ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg'unlikni qaror toptirish vazifalari kiradi¹.

“Odob mahalla yili” dasturi doirasida:

- Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish maxsus jamg'armalarini tashkil etish;
- Kam taminlangan yosh oilalarni qo'llab quvvatlash, ularning ro'zg'or xo'jaliklarini yo'lga qo'yib olishiga ko'maklashish maqsadida tijorat banklarida va turli jamg'armalarning mablag'larini jalb etish;
- Kichik va o'rta beznisni rivojlantirish, jumladan, 950ta maishiy xizmat shaxobchalari tashkil etish orqali 160 ming yangi ish o'rinlarini yaratish;
- Respublikadagi 433 mahallada 2,6 ming km. gaz tarmoqlarini barpo etish 656 mahallada esa 1720 km. suv quvurlari yotqizish orqali aholini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan doimiy taminlash;

¹ Mahalla. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Obod mahalla yili“ dasturi to'g'risida Qaroriga sharh. 2003-y. 19fevral. N7

- 12500 ming kv. metr uy – joy fondini mukammal tamirlash hisobiga mahalla aholisining yashash sharoitini yaxshilash, 500 mahalladagi 1000 km.dan ortiq yo'llarni tamirlash, asfaltlash va obodonlashtirish, zamonaviy mahalla guzarlarini barpo etish;
- Har yili 20 ming nafargacha faxriylarimizning sanatoriy va shifoxonalarda sog'liqlarini tiklash;
- Muhtoj keksalar va nogironlarni protez – ortopediya buyumlari aravachalar eshitish va ko'rish moslamalari bilan imtiyozli taminlash;
- Uzoq qishloq va ovullarda yashaydigan aholini tibbiy – ijtimoiy salomatligiga etibor qaratish;
- Mahallalardagi 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni barcha sport inshootlariga bepul qatnashi imkoniyatini yaratish singari ko'plab muhim chora – tadbirlarini amalga oshirish belgilandi¹.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bo'lgan mahalla tizimining bo'lgan mahalla tizimining o'zni va rolini aniq belgilash, mahallada tashkiliy – huquqiy masalalarni takomillashtirish, mahalla faoliyatining ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilash, mahallada mahaviy – marifiy sohadagi, axloqiy tarbiya va milliy ananalarni mustahkamlash, mahallaning moliyaviy – moddiy asoslarini mustahkamlashdan iboratdir. Har bir sohada bo'lgani kabi, mahalla faoliyatida ham moliyaviy jihat asosiy masalalarni hal qiluvchi omildir.

2003 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan **«Obod mahalla yili» dasturini (2003 yil 7 fevral) hayotga tadbqiq etish** natijasida mamlakat mahallalarida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mahallalardagi kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun 41760,5 mln. so'm hajmdagi kreditlar ajratildi. Mahallalarda 12527 ta ish o'rinlari yaratish uchun ish o'rinlari bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasidan 11571, mln. so'm, oilaviy

¹ Mahalla. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Obod mahalla yili“ dasturi to'g'risida Qaroriga sharh. 2003-y. 19fevral. N7

tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadlarida 2765 ta oilaga 2005,5 mln. so‘m hajmdagi mablag‘lar ajratildi. 5528 ta mahalla hududida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish natijasida hammasi bo‘lib, 176.418 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etildi. SHuningdek, mahallalarda maishiy xizmat markazining 995 ta yangi shoxobchasi barpo etildi. Mamlakat bo‘yicha 383 ta yangi mahalla guzarlari qurilib, unga 20407,6 mln. so‘m mablag‘ sarflandi¹.

2003 yil 16 avgustda umumxalq hashari o‘tkazildi. Bunda obodonlashtirish, mahallalarda sport turlarini rivojlantirish, sport majmualari qurish va ta‘mirlash, turli ko‘rik-tanlovlar, «Obod mahalla yili»da gaz quvurlari o‘tkazildi. Qishloqni tabiiy gaz bilan ta‘minlash, qishloqqa ichimlik suvi etkazib berish, telefonlashtirish ishlari qilindi.

Respublika “Mahalla” hayriya jamg‘armasi, uning viloyat, shahar, tuman bo‘limlari bilan hokimliklar hamkorligida har yili “Eng yaxshi mahalla”, “Eng ibratli oqsoqol” “Mahalla jonkuyari”, “Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli” shiori ostida muttasil ko‘rik – tanlovlar o‘tkazib turish ananaga aylandi.

Hozirgi davrga kelib Respublika “Mahalla” hayriya jamg‘armasining aholini huquqiy madaniyati va faolligini oshirish maqsadida mahallalarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “Mahalla darsxonasi”ning dasturini bajarish rejasini muttasil ravishda “Mahalla” gazetasida elon qilib borish an‘anaga aylangan.

Avvalo, shuni qayd etish kerakki, yil davomida mahallalarimizni yanada obod qilish maqsadida keng ko‘lamdagi bunyodkorlik, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Ko‘plab madaniy – maishiy binolar, sport maydonlari, xiyobon va bog‘ – rog‘lar barpo etildi.

¹ Mahalla gazetasi. “Mahalla: kecha va bugun” 2003y 23-dekabr. N87

Buni 1 milliard 745 million so'm miqdorida mablag' sarflanib, 310 ta mahalla guzari bunyod qilingani, shahar va qishloqlarimizda 25 milliondan ziyod daraxt ko'chatlari o'tkazilgani misolida ham ko'rish mumkin.

2003 –yil davomida yurtimizdagi 5 ming 630 ta mahalla hududida ko'plab kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish hisobidan qariyb 155 mingta yangi ish o'rne yaratilgani va buning natijasida kam taminlangan fuqarolardan 110 ming nafari ish o'rniga ega bo'lgani ayniqsa diqqatga sazovor.

Bu muhim ishga tijorat banklari tomonidan 36 milliard 155 million so'mlik kredit mablag'lari ajratildi. Shuningdek aholini ish bilan taminlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasidan qariyb 8 milliard so'm, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 1 milliard 700 million so'mdan ziyod mablag' ajratilgani ko'pgina muammolarni hal etish uchun imkon yaratdi.

Dastur doirasida 1 milliard 200 million so'mlik hayriya yordami ko'rsatildi. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan 400 mingdan ziyod ayol davlat tomonidan nafaqa puli tayinlandi, shuningdek, 180 mingta kam taminlangan oilaga qariyb 4 milliard so'm miqdorida moddiy ko'mak berildi.

Shu bilan birga, mahallalardagi tinch va osoyishta hayotni ta'minlash, oilalarni mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rish, yetimlar va yolg'iz qolgan fuqarolarga mehr-muruvvat ko'rsatish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir intilishlarini qondirish kabi serqirra jamoaviy boshqaruv ham mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil etmoqda. Lekin, shu bilan birga o'zini o'zi boshqarish organlarini demokratlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich davom etadi. Ayniqsa, aholi huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy qarorlar qabul qilishda mahallalarning o'rnini yuksaltirish, mahallalarni mahalliy davlat

hokimiyati organlaridan to'la mustaqil bo'lishini ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar yaratish, fuqarolarni mahallalar vositasida qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlaridagi umumxalq muhokamalarida faol ishtirok etishlarini ta'minlash yaqin istiqboldagi islohotlarning asosiy vazifasidir.

Ayni paytda tegishli vazirlik hamda idoralarga mahalla guzarlari, choyxonalar uchun xo'jalik, uy – ro'zg'or anjomlarini imtiyozli narxlarda berish, jamg'arma tasarrufidagi kichik korxonalarni zarur dasgohlar, ehtiyot qismlar, xom ashyo mahsulotlari yarim tayyor mahsulotlar bilan taminlash vazifasi topshirildi. Jamg'armaga Xalq ta'limi, Madaniyat va sport ishlari, Sog'liqni saqlash vazirliklari bilan birgalikda "Oila – maktab – mahalla" dasturini ishlab chiqish va ijrosini taminlash, madaniy – ma'rifiy ishlarni jonlantirish, aholi salomatligini, ekologik muhitni yaxshilash, sog'lom avlodni kamol toptirish kabi vazifalar yuklatildi¹.

"Mahalla" aholiga ijtimoiy – madaniy xizmat ko'rsatish sektorini bevosita turar joylarga yaqinlashtirish, server xizmati ko'rsatishni rang – baranglashtirish, fuqarolarning madaniy ehtiyojlari, talablari darajasida tashkil etishga intilmoqda. Jamg'arma nodavlat tashkilot sifatida mahallalarda madaniy tadbirlar o'tkazish, maishiy xizmat ko'rsatish, turarjoylarni obodonlashtirish, kommunal xizmatni yaxshilash, aholini suv gaz bilan taminlash ishlarida mahalliy hokimiyat organlariga yaqindan yordam bermoqda. Keyingi yillarda mahallalarda tandirxona, oshxona, kimyoviy tozalash, poyafzal tuzatish, savdo – sotiq shaxobchalari yaratildi va bu chora tadbirlar aholining ijtimoiy madaniy hayotini yaxshilash, turmush darajasini oshirishga qaratilgandir.

2013-2017 yillarda "Zamonaviy mahalla" yagona arxitektura loyihasi asosida:

¹ Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati institutlari "Akademiya" 2006. 95b.

– mahallalardagi aholi xonadonlari, ko'p qavatli uylarning tashqi ko'rinishi mahallaning joylashishiga qarab bir xil ko'rinishga olib kelinadi;

– mahallalarning ichki ko'chalari, piyodalar yo'lakchalari, yo'l chetidagi ariq-zovurlar va yo'l to'siqlari kapital ta'mirlanadi.¹

Moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida 500 ta mahalla fuqarolar yig'ini binosi rekonstruktsiya qilinadi va 53 ta yangi mahalla guzari qurilib, ular kompyuter texnikasi bilan ta'minlanadi. Xususan, Toshkent shahri misolida har bir tumanda "Mahalla markazlari" qurib foydalanishga topshirilishi rejalashtirilmoqda. Unda mahalla fuqarolar yig'ini va barcha ijtimoiy soha tashkilotlari hamkorligida oilalarning barqarorligini ta'minlash, yoshlar, ayniqsa, ayollar jinoyatchiligini oldini olish ishlari ko'zlangan.

E'tiborli tomoni, joriy "Obod turmush yili" davlat dasturida aholiga maishiy-texnika vositalari va xo'jalik jihozlarini sotib olish uchun tijorat banklari tomonidan beriladigan iste'mol kreditlari hajmini 1,3 barobarga oshirish, ipoteka kreditlari hisobidan mamlakatimiz hududlarida 105 ta ko'p qavatli uylar qurish rejalashtirilgan. SHuningdek, har bir tumanda ayollar uchun go'zallik salonlari tashkil etilayotganligi diqqatga sazovor. 2013 yilda kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalarning 189 ming nafar qizlariga sport bilan shug'ullanishi uchun sport kiyimlari berish va har bir tumanda 50 tadan kam ta'minlangan oilalarning to'ylarini o'tkazish belgilangan².

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik davrida o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish o'zining samaralarini berdi. Mahallalar mamlakatdagi aholini o'zini o'zi

¹ Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruza.//Xalq so'zi.2013.8dekabr .

² Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi.//O'zbekiston ovozi.2014. 18-yanvar

boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, qarorlar qabul qilishda fuqarolar xohish va istaklarini e'tiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda. Shuningdek, hozirgi davrga kelib, davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muxtoj oilalarni belgilash kabi vakolatlari ham deyarli mahallalarga berilgan.

Mahalla instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati yanada takomillashtirilib, ularning huquq va vakolatlarini kengaytirish, joylarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni hal etishdagi o'rni va ahamiyatini kuchaytirish, nochor va yosh oilalarga ijtimoiy ko'mak hamda yordam ko'rsatish, mahallalar va yashash joylarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilib, tashqi qiyofasi yaxshilanadi.

III-bob. “O’zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o’rni va roli” mavzusini o’qitishning metodik tavsiyalari

3.1. “O’zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o’rni va roli” mavzusi materialini samarali o’qitish bo’yicha tavsiyalar.

Hozirgi kunda talim tizimini yanada isloh qilishda Respublika maorifchilarining 2007 – yil avgust konferensiyasida 2007-2008 o’quv yilida sifat va samaradorlikka erishish, ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni aktiv tatbiq etish, yosh kadrlarni yuqori darajada ish bilan ta’minlash masalalari ustuvor vazifa qilib qo’yildi.

Texnologiya so’zi fanga 1872 yilda kirib keldi. U yunoncha «texos»-hunar, mahorat va «logos» esa ta’limot yoki fan degan ma’noni beradi. Qisqacha «mahorat haqidagi fan» ma’nosini anglatadi. Bugungi kunda ayrim kishilar pedagogik texnologiya– bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog’liq, hamda o’qitish jarayonida qo’llanishi zarur bo’lgan TSO, kompyuter, masofali o’qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb o’ylashadi. Bu to’g’ri emas. Pedagogik texnologiyaaning eng asosiy negizi– bu o’qituvchi-trener va talaba-o’quvchilarning begilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog’liq¹.

“Mustaqillik yillarida O’zbekiston turizm va uning istiqbollari” mavzusini Kasb – hunar kollejlari o’qitishda “Blits – so’rov”, “Rezyume”, “Muammo”, “Bahs(debat)lar”, “Zinama – zina”, “SWOT” tahlil jadvali, “FSMU”, “Aqliy hujum”² kabi interfaol texnologiyalardan foydalanish mumkin. Ushbu mavzuda qo’llash mumkin bo’lgan bazi bir interfaol texnologiyalar va ularning ishlatish yo’llarini keltirib o’tamiz.

¹ Yo’ldoshev J.G., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari - T., 2004. 4-bet

² Tolipov O.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari. - T., 2006.13-bet.

FSMU texnologiyasi¹. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baqslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi-talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Texnologiyaning maqsadi. Ushbu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarni aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi har bir talaba (yoki o'quvchi)ga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

F — fikringizni bayon eting;

S — fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;

M — ko'rsatgan sababingizni asoslovchi dalil keltiring;

U — fikringizni umumlashtiring.

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)lar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;

- yakka tartibdagi ish tugagach, talaba (yoki o'quvchi)lar kichik guruhlariga ajratiladi va kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

¹ Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar - T., 2001. 59-bet

- kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;
- o'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi;
- mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi

Vazifa. Mahalla – demokratiya maktabi!» mavzusi bo'yicha quyidagi fikrlaringizni bayon eting:

(F) - fikringizni bayon eting;

(S) - fikringiz babniga biron sabab ko'rsating;

(M)- ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring;

(U) - fikringizni umumlashtiring.

BBB texnologiyasi¹

“BBB” metodini o'tkazish bosqichlari:

O'qituvchi: Talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi;

Mazkur mavzu bo'yicha bilgan bilimlarini hohlagan tushuncha va ma'lumotlarini yozma ravishda bayon etishlari talabalardan so'raydi;

Quyidagi sxema asosida ishlashlarini taklif etadi;

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

Uchinchi, ya'ni bilib oldim bo'limini bo'sh qoldiriladi;

- Belgilangan vaqt yakunlangach talabalar yozgan fikr mulohazalarini o'qib eshittiradi;

¹ Ishmuhamedov R. Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari- -T., Nizomiy nomndagi TDPU 2009. 46-bet.

- Ularni tinglab, mavzuning talabalar uchun o'rganilmagan jihatlarini tushuntirib yoritib beradi;
- Mashg'ulot yakunida "Bilib" oldim bo'limini to'ldirishlarini so'raydi va bo'limni hohlagan, bilib olgan ma'lumotlarini taqqoslashni uyga vazifa tarzida beradi.

Talaba: Hamma topshiriqlarni qabul qiladi va bajaradi;

- Nimaniki o'ylagan bo'lsa, shuni qag'ozga yozadi;
- Berilgan mavzu bo'yicha bilgan va bilmagan jihatlarini tahlil qiladi;
- Mustaqil ijodiy ishlaydi.

Kutiladigan natija: Talabalar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi.

«**Muloqot**» **texnologiyasi**¹**da** talaba (yoki o'quvchi)larning dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'z fikrlarini erkin bayon etishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda bunday mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi)arni kichik guruhlariga ajratgan holda o'tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi. Tanlangan mavzu, muammo asosida talaba (yoki o'quvchi)larning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanishi. Amaliy, laboratoriya, fakultativ mashg'ulotlarda va darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan tarbiyaviy soatlarda qo'llanishi mumkin bo'lib, mashg'ulot jamoa va kichik guruh shaklida o'quv auditoriyasida yoki tabiat qo'ynida o'tkazilishi mumkin.

¹ Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T., 2006. 203b.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar. Vatman qog'ozi, flomaster, markerlar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotni boshlashdan avval talaba (yoki o'quvchi)larni muloqot, bahs-munozarani o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi, so'ngra ushbu darsning bosqichma-bosqich o'tkazilishini tushuntiradi;
- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larni mavzu yo'nalishlari bo'yicha guruhlariga ajratadi;
- har bir kichik guruh jamoasi o'z yo'nalishi bo'yicha tayyorgarlik boshlaydi: boshqa kichik guruhlar bilan muloqotga kirisha olishi uchun o'z yo'nalishi bo'yicha turli materiallar, ko'rgazmali qurollar, turli rivoyat, olim va mutafakkirlarning fikrlari va boshqalarni tayyorlaydi;
- kichik guruhlar o'rtasida asosiy mavzu va uning yo'nalishlari bo'yicha muloqot boshlanadi;
- o'qituvchi guruhlarining fikrlarini maqsadli yo'naltirib boradi va asosiy mavzu kichik guruhlar tomonidan yoritilgach, u aytilgan fikrlarga o'zining munosabatini bildirgan holda muloqotni yakunlaydi.

Texnologiyani o'tkazish algoritmi:

1-bosqich. O'qituvchi mashg'ulotni muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlaydi. Masalan, «Mahalla nima uchun jamiyatning ajralmas bo'g'ini hisoblanadi?» Shu mavzuni o'rta tashlab talaba (yoki o'quvchi)lardan mahalla uning jamiyatdagi o'rnini, fuqarolik jamiyati qurishdagi rolini va boshqalarni aniqlab oladi. Ularni shu tartibda guruhlariga ajratadi va ularga tayyorgarlik ko'rishlari uchun sharoit hamda imkoniyatga qarab aniq vaqt belgilaydi.

2-bosqich. Har bir kichik guruhdagi talaba (yoki o'quvchi)lar o'z mavzulari asosida kerakli materiallar (dalillar, misollar, aniq fikrlar, o'z fikrlarini tasdiklovchi ko'rgazmali materiallar, imkon bo'lsa videofilm,

maqolalar, mutafakkir va olimlarning so'zlari va boshqalar)ni tayyorlaydilar. Kichik guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o'z fikrlarini ko'shimcha qilishlari mumkin.

3-bosqich. Kichik guruhlar himoyaga tayer bo'lgach, o'qituvchi kichik guruhlarining biriga himoya uchun so'z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin). Kichik guruh vakili jamoa nomidan so'zga chiqib, ularga berilgan mavzu asosida tayyorlangan materiallar va dalillar asosida himoya qilishga kirishadi. Kichik guruh vakili so'zini tugatgach, jamoaning qolgan a'zolari o'z fikrlari bilan qo'shimcha qilishlari mumkin.

4-bosqich. Mashg'ulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o'qituvchi navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so'z beradi. Ikkinchi kichik guruh ham birinchi kichik guruh kabi o'z mavzusi bo'yicha himoya qiladi. Himoya tugagach, o'qituvchi mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi.

Izoh: Har ikkala kichik guruhning himoyasi vaqtida o'qituvchi iloji boricha ularga xalaqit bermaslikka, o'z fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi. Hech qaysi kichik guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi. Kichik guruhlar himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o'tkazishga qo'yilgan talab, qoidalarini to'liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki kichik guruh erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

5-bosqich. Kichik guruhlar bir-birlariga savollar berishni boshlaydilar. Kichik guruhlar tomonidan beriladigan savollar, ularning himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida o'z guruhlarining fikrlarini yanada ta'kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo'shilishlariga da'vat qilish uchun berilishi mumkin. Talaba (yoki o'quvchi)lar erkin holda o'zlarining chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. O'qituvchi

bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratgan holda bahs-munozarani samimiylilik bilan boshqaradi.

6-bosqich. O'qituvchi har ikkala tomonning savollari, fikrlari, ma'qullaydigan so'zlari tugagach, ular tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o'zining bu masala haqidagi fikr va mulohazasini bayon etadi. Kichik guruh ishtirokchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javobni berishga harakat qiladi.

Mashg'ulot oxirida o'qituvchi har ikkala guruhning mashg'ulot jarayonidagi faoliyatlarini tahlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Ushbu mashg'ulotning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

KBI (kuzatish, bahslashish, ishontirish) texnologiyasi¹

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larni xayotda faol o'rnini topishlarini, peshqadamlik va sardorlik sifatlarini, jamoada ishlash ko'nikmalarini, shuningdek, o'zgalar fikrini xurmat qilgan holda dalil keltira olish, o'z fikrini isbotlay olish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish mahoratlarini hamda murosaga kelish, izlanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- Bu texnologiyani foydalaniladigan mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi)lardan oldindan bo'ladigan tayyorgarlikni talab qiladi. Mashg'ulot mavzusi talaba (yoki o'quvchi)lar auditoriyasiga oldindan ma'lum qilinadi, vazifalarni bajarish uchun tayyorlanishga beriladigan aniq vaqt, mavzu mazmuni, uning murakkabligi va darajasiga qarab belgilanadi.
- Ushbu mashg'ulot bahs-munozara uslubiga asoslangan bo'lib, o'zining aniq o'tkazilish vaqti va tartibiga egadir. O'qituvchi dastlab talaba (yoki o'quvchi)larni mashg'ulot o'tkazish tartib - qoidalari bilan tanishtiradi va

¹ Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» / Qo'llanma. - Qarshi: Nasaf, 2000. 39b.

ularni kichik guruhlarga ajratadi. Misol tariqasida, «Mahalla va fuqarolik jamiyati» mavzusidagi mashg'ulotni o'tkazish tartibini ko'rib chiqamiz. Mashg'ulotning boshida talaba (yoki o'quvchi)lar muhokama qilishlari uchun bir necha savollar oladilar.

Masalan:

- Mahalla nima?
- Fuqarolik jamiyati nima?
- Fuqarolik jamiyati rivojlanishida mahallaning o'rni qanday?
- Qanday qilib fuqarolik jamiyati qurish mumkin?
- Kichik guruh qatnashchilari o'z xohishlari bo'yicha bittadan savol tanlab oladilar va so'zga chiqishga tayyorlanadilar. Ular o'zlari tanlagan savol yuzasidan o'z tushunchalari, mavzuga bo'lgan yondoshuvlari, munosabatlari hamda ushbu savollarga javoblarini berishda o'zlarining egallagan xolatlari qanchalik to'g'ri ekanligiga chiqishlari orqali talaba (yoki o'quvchi)larni ishontirishga harakat qiladilar. O'qituvchi ko'rsatmasiga binoan, boshqa kichik guruh qatnashchilari aytilgan fikr va so'zga chiqqan talaba (yoki o'quvchi)larni egallagan holatlariga qarshi fikrlar aytishadi, ya'ni so'zga chiqqan kichik guruh tanlagan yo'lni rad etadilar va shu orqali ularni bahs, munozara, tortishuvga undaydilar.
- Bahs-munozara yakunida har bir so'zga chiqqan kichik guruh boshqa kichik guruh a'zolarini o'zlarining tortishuvdagi fikrlari, tanlagan holatlari, dalil va isbotlari qanchalik to'g'ri ekanligiga ularni ishontira olishlari va o'z tomonlariga og'dira olishlari iloji bo'lsa ularni o'z guruhlariga qo'sha olishlari kerak.
- Mashg'ulotning oxirgi bosqichiga o'qituvchi yakun yasaydi va bahs - munozara bo'yicha o'z fikrini bildiradi.

KBI texnologiyasi bir qancha variantda o'tkazilishi mumkin.

Masalan, tinglovchilardan (o'z xohishlariga qarab) tashabbuskorlar guruhini tuzib olish mumkin va bu guruh bahs-munozara davomida

aytilgan qiziqarli fikrlar, dalillar, asosiy tushunchalar, vaziyatdan chiquvchi holatlar, qiziqarli javoblar, mulohaza, takliflar va boshqalarni o'quv xonasining taxtasiga yoki vatmanga yozib boradi. Tashabbuskorlar guruhining vazifalar qatoriga: bahs-munozarani borishini nazorat qilish, qatnashchilarni faollashtirish, ba'zilarga kerak bo'lsa alohida tanbeh va tilaklar bildirishni ham kiritish mumkin. Bunday tashabbuskorlar guruhi auditoriyasida bir-biriga o'xshash fikrlar bildirilishi, guruhlarini faollashtiradi, ularni erkin holatda o'z fikrlarini aytishlariga kerakli muhit va sharoitni yaratadi. Shunindek, bu guruh mashg'ulotning xulosa qismida ham ishtirok etib, guruhlarining tanlagan holatlari, bildirgan fikrlari va tortishuvlariga o'z munosabatlarini bildirishlari mumkin.

Bahs - munoraza tashkil etish uchun quyidagi savollardan foydalanilish mumkin:

- Demokratiya xalq hokimiyati demakdir;
- Otang mahalla, onang mahalla;
- bir bolaga yetti mahalla ota – ona;
- mahalla demokratiyaning amaldagi ifodasi;

Yuqoridagi bahs-munozaralarni o'tkazish mavzulari odob-axlok, madaniyat yo'nalishida (Masalan, «Mening mahallada tutgan o'rnim», «Fuqarolik jamiyatni shakllantirish uchun men nima qilishim kerak?» va boshqalar) bo'lgani maqsadga muvofiq, chunki bu mavzular yoshlarni ko'proq qiziqtiradi.

3.2. “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o‘rni va roli” mavzusi yuzasidan pedagogik talim texnologiyalari asosida o‘tkazilgan sinov dars ishlanmasi va taqdimoti

Mavzu: O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o‘rni va roli

Darsni olib borish texnologiyasi

Mashg‘ulot vaqti-2soat	O‘quvchilar soni: 30 nafar
Mashg‘ulot shakli	Ko‘rgazmali ma’ruza
Mashg‘ulot rejasi	1. Mahallaning tarixi va rivojlanish bosqichlari. 2. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari 3. Mahalla davlat va jamiyat taraqqiyotining omili.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o‘rni va roli haqida tasavvur va tushuncha hosil qilish, ko‘nikmalarni shakllantirish	
Pedagogik vazifalar: ✚ Mahallaning tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida bilim berish ✚ Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari jarayonini o‘rganish ✚ Mahalla davlat va jamiyat taraqqiyotining omilini tahlil qilish	O‘quv faoliyati natijalari: ✚ Mahallaning tarixi va rivojlanish bosqichlari bilimga ega bo‘ladilar. ✚ Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari jarayonini o‘rganadilar ✚ Mahalla davlat va jamiyat taraqqiyotining omilini tahlil qila oladilar
Ta’lim berish usullari	Maruza, BBB, “FSMU” enterfaol texnologiyasi

Ta'lim berish shakllari	Umumiy, yakka tartibda ishlash
Ta'lim berish vositalari	Maruza matni, kadaskop, slaydlar, qo'llanma, tarqatma materiallar,
Ta'lim berish sharoiti	Proyekter bilan jihozlangan o'quv xona
Monitoring va baholash	Reyting savol-javob va pedagogik texnologiya asosida

Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchilar
I bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish. (20 minut)	1.1. Salomlashiladi, davomat olinadi. 1.2. O'tilgan mavzu yuzasidan savol javob o'tkaziladi. 1.3. Yangi mavzu va uning rejasi maqsadi tushuntiriladi. 1-ilova (BBB texnologiyasi)	Tinglaydilar Yozib oladilar
II bosqich. Asosiy qism (30minut)	2.1. Mavzuni 1-rejasi Mahallaning tarixi va rivojlanish bosqichlari tushuntiriladi. 2.2. Mavzuni 2-rejasi Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari tushuntiriladi. 2.3 Mavzuni 3-rejasi Mahalla davlat va jamiyat taraqqiyotining omili tushuntiriladi.	Tinglaydilar. Fikr bildiradilar. Asosiy joylarni yozib oladilar
III bosqich.	3.1. Mavzuni umumlashtirishda "FSMU" texnologiyasidan foydalaniladi.	Savol-javoblarda faol qatnashib,

Umumlashtiruvchi qism (25minut)	3.2. Mavzuga xulosa yasaladi.	muammoni yechishda ishtiroketadilar
IV bosqich. Yakuniy qism (5minut)	4.1. O'tilgan mavzu yuzasidan va uyga vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob beriladi.	Savollar beradilar. Tinglaydilar.

1- Ilova

Mavzu: O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli

Reja:

1. Mahallaning tarixi va rivojlanish bosqichlari.
2. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari
3. Mahalla davlat va jamiyat taraqqiyotining omili.

2 – ilova

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli mavzusi bo'yicha

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

3 – ilova

1 - variant. Mahalla – demokratiya maktabi

F – fikr	
S – sabab	

M – misol	
U – umumlashtiring.	

2 – variant. Mahalla – fuqarolik jamiyati poydevori.

F – fikr	
S – sabab	
M – misol	
U – umumlashtiring	

4-ilova

Baholash me’zoni va ko’rsatgichlari.

Uyga berilgan topshiriqqa tayyorligi	Pedagogik texnologiyadagi faolligi	Savol javoblardagi faolligi	Jami ball
1ball	1ball	1ball	3ball

3 ball – «a’lo»

2 ball – «yaxshi»

1 ball – «qoniqarli»

5 – ilova

O’zbekistonda fuqarolik jamiyatining barpo etishda mahalla institutining o’rni va roli mavzusi maruza matni

O’zbekiston mustaqilligining dastlabki paytlaridanoq barcha sohalarda jadal amalga oshirila boshlagan ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar o’zini-o’zi boshqarishning an’anaviy shakli hisoblangan mahalla faoliyatini takomillashtirish hamda uning vakolat doirasini yanada kengaytirish borasida ham muhim ahamiyat kasb etdi. U quyi hokimiyat

organi, boshlang'ich ijtimoiy tashkilot maqomini oldi, uning bajaradigan vazifalari kengaytirildi. Bu esa xalqimiz tarixiy an'alarining tiklanishida, fuqarolarimiz ongida ma'naviy – ahloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek xalqi oilaviy turmush tarzida mahalla, ya'ni qo'ni-qo'shnichilik jamoasi faoliyatini tarixiy-etnografik nuqtayi nazardan o'rganish hozirgi kunda ilmiy ahamiyatga ega. Kishilarning o'zaro jamoa bo'lib yashash tarsi insoniyat tarixining qadimgi davrlariga borib taqaladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo hududlarida insonlarning birgalikda yashagan, umumiy mehnat qurollariga ega bo'lgan qon-qarindoshlar jamoasi so'nggi paleolit davrida shakllangan. Uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida ushbu uyushma ma'lum bosqichlarni bosib o'tib, qo'ni-qo'shnichilik jamoasiga aylangan¹.

Mahalla-azaldan yurtimizda tarbiya o'chog'i, ota bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlar maskani, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi sifatida etirof etib kelinadi. Odamlar o'rtasida mehr oqibat, ahillik hamda totuvli ehtiyojmand kishilar holidan xabar olish, to'y tomosha, hasher va marakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish kabi el-yurtimizga xos urf – odat va an'alar, avvalambor mahalla muhitida shakllangan.

Maxalliy davlat xokimiyati tubdan islox qilindi. Isloxotlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Maxalliy davlat xokimiyati to'g'risida" gi qonun (1993 yil 2 sentabr), "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shaxar Kengashlariga saylovlar to'g'risida" gi Qonun (1994 yil 5may) asosida amalga oshirildi.

Konstitutsiyaning 99-moddasida viloyatlar, tumanlar va shaxarlarda (tumanga bo'ysunadigan shaxarlar, shuningdek, shaxar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari

¹ Қувватов Н.Б. Ўзбекистонда ўтиш даври ва жамият тараққиёти Т.: 2013. 78б.

Kengashlari xokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni xal etadilar, deb belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyada maxalliy xokimiyatning ikki mustaqil organga - vakillik va ijro xokimiyat organlariga bo'linishi belgilandi. "Maxalliy davlat xokimiyati to'g'risida" gi Qonunning 1-moddasida "Viloyatlar, tumanlar va shaxarlarda (tumanga bo'ysunadigan shaxarlardan, shuningdek shaxarlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat xokimiyatining vakillik organlaridir", deb aniq belgilab qo'yildi. SHaxar tarkibiga kiruvchi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaxarlarda vakillik organlari tuzilmaydi.

"Xalq deputatlari viloyat, tuman va shaxar Kengashlariga saylov to'g'risida" gi Qonunda vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida o'tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shaxar Kengashlariga 60 tadan ko'p bo'lmagan, tuman va shaxar Kengashlariga esa 30 tadan ko'p bo'lmagan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi. Mustaqillik yillarida ikki marta - 1994 yil dekabrda va 1999 yil dekabr oyida xalq deputatlari viloyat, tuman, va shaxar Kengashlariga ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida saylovlar bo'lib o'tdi, 1999 yilgi saylovda xalq deputatlari viloyat, tuman va shaxar Kengashlariga 6145 nafar deputat saylandi.

Xokimlikning tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasida maxalliy ijroiya xokimiyati organi qayta tashkil etildi. Bu borada milliy davlatchilik tarixi tajribasidan ijodiy foydalanildi. Jumladan, Amir Temur davridagi davlatchilikka nazar tashlasak, o'sha zamonlarda viloyatlar, shaxarlar xokimlar tomonidan yakkaboshchilik asosida boshqarilganiga guvoh bo'lamiz.

1992 yil 4 yanvarda "O'zbekiston Respublikasining maxalliy xokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida" Qonun qabul qilindi.

Mazkur qonunga muvofiq respublikaning xamma xududida maxalliy ijro xokimiyati organi sifatida xokim lavozimi ta'sis etildi. Xokimlar faqatgina ijro xokimiyati organlarigagina emas shuningdek, mahalliy vakillik organlariga ham rahbarlik qiladigan organ sifatida mustahkamlandi. Xokimning vakolat muddati 5 yil bo'lib, u tegishli hududda vakillik organiga xam, ijro xokimiyatiga ham boshchilik qiladigan mansabdor shaxs xisoblanadi.

Ijro organlarida bog'liqlikni ta'minlash maqsadida, viloyat xokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shaxar xokimlari viloyat xokimi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi xamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Vakillik organlari tuzilmaydigan shaxar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham xokimiyatlar ta'sis etildi, ularning apparati - xokimiyat tashkil etildi. Viloyat xokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi.

1992 yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 159 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati - xokimiyatlar tuzildi.

Mustaqillik yillarida maxalliy xokimiyatni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan isloxotlar natijasida ijro xokimiyati bilan vakillik xokimiyati bir-biridan rasman ajratildi. Xokimlar xalq deputatlari Kengashlariga bo'ysunmaydi. ammo Kengash oldida xisob berib turadi. SHu bilan birga xokimlarni joylarda xam vakillik, xam ijro xokimiyati organlariga boshchilik qilish xolatini vakillik organlari xokimlarga bo'ysunadi, deb tushunmaslik kerak. Vakillik organlari xokimlarga bo'ysunmaydi, vakillik organlari ishini tashkil qilishga xokimlar boshchilik qiladilar.

Shunday qilib, Mustaqillik yillarida markaziy, viloyat, shaxar va tumanlar darajasidagi davlat xokimiyati va boshqaruv tartiblari tubdan yangi shaklda barpo etildi. Maxalliy davlat xokimiyatini shakllantirishda o'zbek milliy davlatchiligining tarixiy an'analari, rivojlangan davlatlarning zamonaviy tajribalari inobatga olindi.

Xulosa

Mahalla – O'rta Osiyoda shaharlar ichidagi hududiy birlik bo'lib, u bizga o'tmishdan meros bo'lib qolgan. Arablar istilosi va islom dini qabul qilinganidan ancha ilgari paydo bo'lgan mahalla cheklangan hududda istiqomat qiluvchi odamlar birlashmasi bo'lib, unda odamlar faqat qo'shnichilik rishtalari bilan emas, balki yuzlab yillar davomida yaratilgan ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy normalar, urf-odatlar va an'analar bilan belgilangan. SHuning uchun ham undan minglab kishilarni faol ijtimoiy hayotga jalb etishning samarali vositasi sifatida foydalanish lozim.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalla institutining o'рни va roli mavzusini tahlil qilishda quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, O'rta Osiyoda mahallaning vujudga kelishi, uning tarixi bu hududda ilk davlatlar paydo bo'lgan davrga borib taqaladi. Mahallaning rivojlanish bosqichlari bu hududdagi davlatchilik taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Ikkinchidan, Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida mahalla institutining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada, Parlament tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlari, Prezident va Vazirlar Mahkamasining qaror va farmonlarida o'z aksini topgan.

Uchunchidan, Fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalla instituti faoliyatini takomillashtirish davlat va jamiyat taraqqiyotining omili ekanligini bugungi kunga kelib, dunyoning rivojlangan davlatlari ham tan olishmoqda.

To'rtinchidan, Fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalla instituti faoliyatini takomillashtirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilib, bu jihatdan 2003-yilni "Obod mahalla yili" deb e'lon qilinishi va davlat dasturi hayotga tadbiq qilinishi bu boradagi ishlarning nechog'li samara

bera berayotganini va uning amaliy ahamiyati ortib borayotganligini ko'rish mumkin.

Beshinchidan, "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli" mavzu materialini samarali o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Oltinchidan, "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli" mavzusi yuzasidan pedagogik talim texnologiyalari asosida o'tkazilgan sinov dars ishlanmasi va taqdimoti tayyorlandi.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalla institutining o'rni va roli beqiyosdir. Dunyoning rivojlangan davlatlarining ham e'tiboriga sazovor bo'layotgan xalqimiz turmush tarziga xos bo'lgan mahalla boshqaruvining hufuzi, o'rni va roli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ortsada ortadiki, aslo kamaymaydi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati

I. Qonunlar, rasmiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, - T.: «O'zbekiston», 2003.
2. "Fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, T.: 2003.
3. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003.31okt.
4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. –T.: Adolat, 2000. –b.212
5. „Obod mahalla yili" dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasi tuzish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi 2002-y 16-dekabr
6. „Obod mahalla yili" dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2003-yil 8-fevral. N20
7. "Mahalla" hayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 1992. 14- sent
8. "Mahalla" hayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 1992. 10-okt.
9. O'zbekiston Respublikasi "Mahalla" xayriya jamg'armasi Respublika boshqaruvining 2004-yil fevraldagi navbatdagi plenum materiallaridan.
10. Konrad Adenaur Fondining "Birlashgan Millatlar tashkilotining fuqarolarni mahalliy o'zini o'zi boshqarish Xartiyasi yo'lida: XXI asr talabi" xalqaro anjuman materiallari. T., 2000.
11. "Fuqarolar yig'ini to'g'risidagi Nizom" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004. Apr.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, ma'ruzalari, nutqlari

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T.: "O'zbekiston" 1992.
2. Karimov I.A. Istiqlool yo'li: muammolar va rejalar. 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 10-sessiyasida 1992 yil 2 va 3 iyulda so'zlangan nutq. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: "O'zbekiston", 1996. 1-jild
3. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T.1.-T.: «O'zbekiston»,1996.
4. Karimov I.A. Hayotimizning, taraqqiyotimizning huquqiy asosi. T-11. T.: O'zbekiston.
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. –T.: O'zbekiston, 2003.
6. Karimov I.A. Hozirgi davrda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning dolzarb vazifalari. T.5.-T.: «O'zbekiston», 1997.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'saqasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6.-T.: «O'zbekiston», 1997.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: «O'zbekiston», 2000.
9. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.T.11-T.: «O'zbekiston», 2003.
- 10.Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. «Ishonch», 2004 yil 26 may.
- 11.Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezonini bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. «Xalq so'zi», 2004 yil 2 iyun.

- 12.O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: “O'zbekiston”, 1996. 1-jild,
- 13.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.:”O'zbekiston”, 7-jild, 1999.132-154 betlar.
- 14.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.”O'zbekiston”, 2011.
- 15.Karimov I.A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”. “Xalq so'zi” gazetasi, 2012 yil 20 yanvar soni.
- 16.Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilliga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. // Xalq so'zi. 2013 yil 7 dekabr soni.
- 17.Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. // “O'zbekiston ovozi” gazetasi, 2014 yil 18 yanvar soni.

III.Monografiyalar, kitoblar, risolalar

1. Abdulqosimov H. Hasanov R.R. O'zbekistonda ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar. – T.: “Akademiya”, 2010.
2. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi. T.: 2007.
3. A.Navoiy “Hayrat ul Abror” Toshkent . 1989.
4. Azizxo'jaev A.A. Demokratiya-xalq hokimiyati demakdir.-T.: 1996.
5. Begmatov A.S. Manaviyat falsafasi yohud I. Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. T.: Akademiya. 2000.
6. Eshquvatov V. Mahalla: o'tmish va bugun. T.: 2005.
7. Grebenkin A.D. O'rta Osiyoda mahalla. T.: 1993.
8. Hasanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. T., 1996
9. Jalilov Sh.I. Mahalla. O'zini o'zi boshqarishning huquqiy kafolati. – T.;O'zbekiston,1999.

10. L.Levitin. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.; O'zbekiston 2001.
11. Nazarov Q. O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. – T.: “Akademiya”, 205
12. Suvonqulov M.N. O'zbekiston Respublikasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining nazariy – huquqiy masalalari. Y.f.n. diss. avtoref. – T.: 2002.
13. Qosimov N., Mustaqillik: kurashlar davri. –T.: 1997.
14. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati institutlari. O'quv qo'llanma. T.: Akademiya. 2006.
15. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va tajriba. T., Yangi asr avlodi.
16. Quvvatov N.B. O'zbekistonda o'tish davri va jamiyat taraqqiyoti. T.: 2013y.
17. Xolbekov A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. – T.: “Akademiya” 2005.
18. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.; 2001.

IV. Gazeta va jurnallar

Marifat

Mahalla. 1994

Xalq so'zi. 1991- 2014

Jamiyat va boshqaruv

Toshkent oqshomi

V. Elektron ta'lim resurslari

1. **www. tdpu. uz**
2. **www. pedagog. uz**
3. **www. ziyonet. uz**
4. **www. edu. uz**
5. **www. Yandex. ru.**
6. **www. Lex.uz.**
7. **<http://historic.ru>**

8. Glossary

9.

T/r	O'zbekcha	Ruscha	inglizcha
1	mahalla	Махалля	city block
2	institut	институт	institute
3	jamiyat	общество	society
4	jamo'a	Общество (круг людей)	community
5	fuqaro	гражданин	inhabitants
6	axloqiy	этический	moral
7	nikoh	Брак	marriage
8	mustaqillik	независимость	independence
9	demokratik	демократик	democratic
10	inson	Человек	human
11	manfaat	Польза	blessing
12	huquq	Право	licence
13	asos	Основа	base
14	ijtimoiy	общественный	public
15	makon	Жилищи	place
16	hududiy	территориальный	territory
17	mamuriy	административный	administrative
18	birlik	единство	unity
19	hujjat	документ	document
20	ilmiy	Научный	scientific
21	me'yoriy	пределный	limited
22	amaliy	практический	practical
23	mutafakkir	мыслитель	thinker
24	xalq	Народ	people
25	yuridik	юридический	juridical

26	qonun	Закон	law
27	islohot	Реформа	reform
28	organ	Орган	organ
29	shahar	Город	city
30	xayriya	милосердия	Alms
31	iqtisodiy	экономия	economic
32	siyosiy	политика	political
33	maqsad	Цель	aim
34	bosqich	Этап	etep
35	pedagogik	педагогический	pedagogical
36	talim	образования	education
37	xo'jalik	Хозяйство	farm
38	urf-odat	Обычай и привычки	customs and tradition
39	marosim	церемония	ceremony
40	tasavvur	представление	imagine
41	qo'ni-qo'shni	соседство	neighbours
42	an'ana	традиция	tradition
43	e'tiqod	почтение	conviction
44	qishloq	Кишлак	village
45	tajriba	эксперимент	experiment
46	nazariya	Теория	theory
47	qadriyat	Ценный	valuable
48	salohiyat	возможность	ability
49	mahalliy	Местный	local
50	ierarxiya	иерархия	ierarxy